

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

ODINAYEVA GULNOZANING

**“Musso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek va uning “Navoiy”
romani asari”
mavzusidagi**

**5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) yo‘nalishida bakalavr
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016 - o‘quv yili)

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent _____**

Buxoro - 2016

Reja:

Ishning umumiy tavsifi.

1-bob. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek va uning "Navoiy" romani asari.

- 1.1. Oybek va uning adabiyotdagi o'rni.
- 1.2. Oybekning "Navoiy" asari haqida.

2-bob. Toponimlarning lingvistik xususiyatlari

- 2.1. Toponimik ma'no.
- 2.2. Toponimlarning fonetik va grammatik xususiyatlari.
- 2.3. Toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari.
- 2.4. Toponimlarning stilistik xususiyatlari.
- 2.5. Toponimlarning yasalishi va tuzilishi.

3-bob. "Navoiy" romanidagi joy nomlari tahlili.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek toponimikasi uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Ayniqsa, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin toponimika sohasi jadal rivojlandi. Toponimika oid ishlar Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi yarim asrda toponimlarni o‘rganish borasida qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bunday ishlar jumlasiga Z.Do‘simov, T.Nafasov, S.Qorayev, H.Hasanov, T.Enazarov, O.Uluqov kabi olimlarning izlanishlari kiritish mumkin [5; 15; 18; 19; 23; 24; 25; 48]. Shu bilan birga alohida olingan hududlarning toponimiyasi yoki ma‘lum asarlardagi onomastik leksikani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, A.Muhammadjonov Andijon, T.Nafasov Qashqadaryo, Z.Do‘simov Xorazm viloyatlarining toponimiyasini atroflicha tadqiq etishgan [5; 15; 32; 33; 51].

Toponimlar xalqning tarixi, turmushi, xo‘jalik faoliyati va o‘tmishi haqida ma‘lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. O‘zbek adiblari tomonidan asarlarda qo‘llangan joy nomlari ham xalq hayotining turli jihatlaridan darak beruvchi vosita sanaladi. Asarlarda qo‘llanilgan toponimlar haqida ilmiy-nazariy ma‘lumotga ega bo‘lish adibning maqsadini, asarning asl mohiyatini tushunishga ko‘mak beradi. Chunki xalq tarixi, o‘tmishi, hoziri va kelajagi mana shu madaniy manbalarda o‘z aksini topgan.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning “Ma‘naviyat o‘z xalqining tarixi, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”, – degan fikrlari ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi [1, 71].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Oybekning “Navoiy” romani joy nomlari tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Asardagi joy

nomlarini o'rganish hafaqat til, balki adabiyotimiz, ma'naviyatimiz hamda madaniyatimiz uchun ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi. Bu malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi Oybekning "Navoiy" romanidagi joy nomlarini lisoniy jihatdan tahlil qilishdir. Ushbu mavsaddan kelib chiqqan holda tadqiq qilinayotgan mavzu oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi.

- asarda mavjud bo'lgan toponimik leksika materiallarini atroflicha to'plash hamda sistemalashtirish;
- toponimlarni lug'aviy-mavzuiy guruhlariga bo'lish;
- nomlarning ma'naviy etimologik xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar olib borish va ba'zi toponimlarning etimologik ma'nosini ochish;
- nomlarning grammatik tuzilishini aniqlash va ularni belgilash.

Ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishida "Navoiy" asarida qo'llanilgan joy nomlarining lisoniy materiali ilk bor to'plandi va atroflicha o'rganildi. Ishda biz to'plagan nomlarning lug'aviy mavzu tasnifi berilib, ba'zi nomlarning etimologiyasiga, yasalish usullari hamda grammatik tuzilishiga to'xtalib o'tildi. Predmetlarni nomlash amal qilingan asosiy holat, tarixiy va zamonaviy an'analar aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Malakaviy bitiruv ishida asardagi joy nomlarini o'rganish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu xulosalar atqqli otlar haqida hozirgacha ma'lum bo'lgan nazariy ma'lumotlarni to'ldirishi mumkin.

Shuningdek ishning ilmiy tahlil va xulosalari nafaqat o'zbek nomshunosligi, balki o'zbek leksikologiyasi, dialektologiyasi, o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun ham ahamiyatlidir. Topilgan va tahlil qilingan materiallardan o'zbek nomshunosligi bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda o'zbek atqqli otlarining etimologik, izohli, imloviy lug'atlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Ishning metodologik asoslari va usullar. Tadqiqotning metodologik asosini ilg'or materialistik dialektikaning narsa va uning nomi orasidagi munosabatga oid ilmiy nazariy qarashlari, shuningdek, nomshunoslik sohasida

atoqli otlarni tadqiqot qilish bo'yicha hozirgi davrda erishilgan muhim ilmiy kontseptsiyalar tashkil qiladi.

Tadqiq qilinayotgan asar leksikasiga oid joy nomlariga doir tahlillarni amalga oshirishda zamonaviy nomshunoslik sohasi, jumladan, turkiy, rus hamda Yevropa nomshunosligi erishgan yutuq hamda tajribalarga tayanildi.

Ishda tavsifiy, tarixiy, tarixiy-qiyosiy, ilmiy usullardan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va material. Ishning tahlil obyekti qilib Oybekning "Navoiy" asari olindi. Asarda qo'llanilgan joy nomlari shu ishning materialini tashkil qiladi. Bu asardagi toponimlar bir qancha hududga tegishli bo'lib, ijodkor badiiy asar mazmuniga, obrazlarning harakat qilish o'rniga qarab nomlar tanlab olgan. Asarda yuzdan ortiq joy nomidan foydalanilgan. Biz ishimizda ularning asosiy qismini lisoniy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Ish kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 52 betni tashkil qiladi.

I bob. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek va uning

“Navoiy” asari.

1.1. Oybek va uning adabiyotdagi o'rni.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida dunyoga kelgan. Uning otasi Toshmuhammad aka dastlab bo'zchi bo'lgan, keyin esa baqqolchilik qilgan. Oybekning tarbiyasi bilan onasi Shahodat Nazar qizi va bobosi shug'ullanganlar. Shoir dastlab eski maktabda, so'ngra «Namuna» maktabida (1918-1921), ta'lim va tarbiya texnikumida (1921-1925) o'qiydi. U 1925-1930-yillarda Toshkentning ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limida o'qiydi (1927-1929-yillarda Sankt-Peterburgdagi Xalq xo'jaligi institutida o'qib kelgan).

Oybek 1935-yilgacha o'zi tugatgan dori fununida siyosiy iqtisoddan dars beradi. 1935-yilda dars berishni tashlab, Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlay boshlaydi. Qatag'onlik yillari yozuvchi institutdan ham, Yozuvchilar uyushmasidan ham haydaladi. Oybek O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida (1945-1949), respublika Fanlar akademiyasida (1951 -yilgacha) faoliyat yuritadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi, Fanlar akademiyasining akademigi bo'lgan shoir 1968-yil 1-iyulda vafot etadi. Uning qabri Forobiy qabristonidadir.

Oybek o'z xotiralarida yoshlik davri haqida shunday yozgan: *«Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Xotiramda bor, ilk she'rim texnikumning «Tong yulduzi» nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zim mas'ul muharrir bo'dim»*. Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirova esa Oybek haqida quyidagicha yozgan: *«...«Tong yulduzi» devoriy gazetamizning muharriri edi. U b a'zan yo'limni to'sar, gazetaga biror narsayozib berishim yoki rasm solishimni so'rar edi...»*. «Hozirgi kunlarda bir doston ustida ishlayapman, — deb yozgan edi Oybek 1965-yilning 9-yanvarida yozgan tarjimai holida, — *Doston tarixiy mavzuda, Amir Temur haqida. Asarning nomi ham hozircha «Temur»*». Lekin adib o'zining «Studentlar» va «Temur» asarlarini nihoyasiga yetkazolmagan.

1975—1985-yillarda Oybekning 20 jildli «Mukammal asarlar to‘plami» nashr etildi. Oybek Gyotening «Faust», Dantening «Ilohiy komediya», Bayronning «Kain», Lermontovning «Maskarad» asarlarini, arman xalq eposi «SosunU Dovud» dostonini va boshqa ko‘plab asarlarni tarjima qilgan. Lekin u tarjimonlik ishining eng asosiy qismi deb Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari tarjimasini hisoblagan.

Oybekning bir qator asarlari kitobxonlar orasida mashhur bo‘ldi. «Cholg‘u tovushi» (1922, birinchi she‘ri, «Tong yulduzi» gazetasida chiqqan), «Tuyg‘ular» (1926, birinchi to‘plami), «Ko‘ngil naylari» (1929), «Mash‘ala» (1932), «Baxtigul va Sog‘indiq» (1933) kabi she‘riy to‘plamlari, «Baxtigul va Sog‘indiq» (1934, doston. U toshkentlik savdogar tomonidan sotib olingan go‘zal qozoq qizi va Toshkentda hunarmandlar va batraklarni boyga qarshi qo‘zg‘olonga ko‘targan, nihoyat o‘z sevgilisini ozod qilgan xalq oqini to‘g‘risidagi poemaertakdir),

«Quyosh qoraymas» (1943-1958, harbiy mavzudagi roman, unga «Olovli yo‘llar» to‘plami eskiz (qoralama, badiiy asos) bo‘lib xizmat qilgan), «Qizlar» (1947, doston), «O‘ch» (1932, doston), «Hamza» (1948, doston), «Bobo» (avtobiografik xarakterdagi doston), «Temirchi Jo‘ra» (1933), «Qutlug‘ qon» (1938), «Bolalik» (1963, avtobiografik qissasi), «Nur qidirib» (1958, qissa), «Ulug‘ yo‘l» (1967, bu romanda 1917-1922 yillar hayot voqealari tasvirlangan), «Gulnor opa», «Fanorchi ota», «Na‘matak» (she‘r), «Yer», «Turmush yo‘lida», «Tog‘ sayri» (bu she‘rda 7 marta «o‘n ikki» bilan bog‘liq obrazlar tizimi yaratilgan), «Abadiyat va umr», «Tepaga chiqamen, soyga tush amen», «Quyosh qo‘shig‘i», «Orqangdan yig‘lab qoldim...» (1926, she‘r), «Uzoqdan turib...» (bu she‘r 1928-yil Leningradda yozilgan), «Mashrab» (1937, link doston), «Oltin vodiya shabadalar» (1949, bu romanga «Qizlar» dostoni eskiz bo‘lgan, qahramonlari: O‘ktam, Sayramov, Komila va boshq.), «Guli va Navoiy» (1968, doston), «Alisherning bolaligi» (bu qissa 1974-yilda e‘lon qilingan), «Chimyon daftari» turkumi (bu she‘rlar turkumi Oybekning Chimyonda (1936-yil) uch-to‘rt oy yashagan vaqtda yozilgan. Adib Chimyon xotiralarini eslab bunday yozgan: «
..Zerikkan va charchagan chog‘larimizda baland tog‘ cho‘qqilariga chiqib, sayr

etib ketardik... Nag kip bir-ikki d a f'a O'n ikki buloq boshiga chiqardim. Sevardim yolg'iz kezishlarni...»), «Bola Alisher» (qissa), «O'zbekiston» (1934), «Yig'i kelmadi sira...», «Mahmud Torobiy» (tarixiy roman) va boshqalar.

1.2. Oybekning «Navoiy» asari haqida.

L.Bat, Mirkarim Osim va Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqida nasriy asarlar bitganlar. Butun umri davomida o'zbek adabiyoti va uning cho'qqisi — Alisher Navoiy ijodini sevib o'rgangan Oybek dastlab Navoiy haqida ilmiy maqolalar, keyin «Navoiy» lirik dostonini (1936-1937) va nihoyat 1942-yilda «Navoiy» romanini yozadi. Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Oybek bu asaming yaratilishi haqida o'z tarjimai holida quyidagicha yozgan edi: «Navoiy obrazi mening ko'pgina lirik she'rlarimda paydo bo'ldi va nihoyat, 1942-yilda «Navoiy» romanini tamomladim». Bu asar haqida muallif yana quyidagi fikrlarni aytgan: «Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar». Bu roman turli muhokamalardan so'ng 1944-yilda nashr etilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar: Navoiy (U asarda «...yoshi ulug'roq ko'rinar edi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiq-lari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq...» deya tasvirlangan. Asardagi «Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart» kabi fikrlar unga tegishli, Sultonmurod, Mavlono Fasihiddin, Husayn Boyqaro (u asarda «belidan yuqorisi kengayib borgan, qabariq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali» deya ta'riflangan), Darveshali (Navoiyning «Siz g'oyat soddasiz. Yolg'iz zohirga qarab hukm qilasiz. Zolimlar borki, bang xayolotini elga karomat deb sotadilar, johillar borki, kitob qo'ltiq-lab, olimlik da'vo qiladilar. Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo'lgan, yolg'iz xalq manfaatini o'ylagan, oliy ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so'ylur» degan gaplari unga aytilgan), Xoja Afzal (Navoiyning do'sti. U asarda «past bo'yli, tiyrak

ko‘zli, xushmuomala...» deya ta‘riflangan), Majididdin Muhammad, Muzaffar barlos, Muhammad burundiq barlos (g‘oyat bilimli, sardor, ulug‘vor odam. Lekin ovga, qushga juda o‘ch...), Zulnun A rg‘un (telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek. Har vaqt ikki qo‘l bilan shatranj o‘ynardi Islim barlos (soda, dilovar, ov va qush ilmining piri), Mo‘g‘ulbek (hamisha qimorf), Badriddin (shunday chaqqon ediki, 7 ta otning ustidan qatorasiga sakragan), Saydbadriddin (butun harakati nozik, ajoyib raqs etgan), Xo ja Abdulla Marvoriy (u romanda «...har ilmdan bilardi. Ajoyib qonun chalardi, she‘r aytardi. Xatni chiroyli bitardi. She‘rni favqulodda zavq va ingichkalik bilan tanlardi. Lekin ashaddiy fisq va fujurchi edi» deya ta‘riflangan), Mavloni Shahobiddin (Majididdin uni «zamonaning Aflotuni» deb ta‘riflagan), Mirak Naqqosh (Navoiy uni «Binafsha bog‘»dagi yozgi ko‘shkka naqsh ishlatish to‘g‘risida gaplashgan), Kamoliddin Behzod (u asarda «hirotlik yetim bola, zehni behad baland, qo‘li oltin ekan» deya ta‘riflangan), Badiuzzamon (Navoiyning «Sizlarda Iskandarning soyasi ham yo‘q. Sizlar uning navkarlariga ham arzimaysizlar» degan nadomati unga qarata aytilgan), Nizomulmulik, Mo‘min Mirzo, Jomiy, Arslonqul, Dildor, To‘g‘onbek, Shayx Bahlul, Valibek, Sohib Doro, Zayniddin, Alovuddin Mashhadiy va boshq.

II bob.

Toponimlarning lingvistik xususiyatlari

Toponimlar o'zbek tili lug'at fondining tarkibiy qismi sanalib, ularning mavjudligi va amalda bo'lishi ona tilimizning umumiy qonun-qoidalari doirasida bo'lsa ham, uning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari mavjud. Ularni o'zbek tilining fonetik, leksik-semantik va grammatik yaruslari misolida kuzatishimiz mumkin.

Ko'plab toponimlar etimologiyasi shuni tasdiqlaydiki, sof leksik-semantik tahlil yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bu tahlilga toponimik birliklarni fonetik va grammatik jihatdan o'rganish ham qo'shilsagina kuzatishlar to'laqonli bo'lishi mumkin. Chunki toponimlarning hosil bo'lish va yasaliş yo'llari turli-tumandir. Mana shunday holatda toponimik birlikning fonetik va grammatik qurilishini o'rganish ularning yasaliş prinsiplarini aniqlashga ko'maklashadi.

2.1. Toponimik ma'no.

Toponim ham lingvistik birlik sanalar ekan, uning muayyan bir ma'no kasb etishi hech kimda e'tiroz tug'dirmaydi. G.D.Tomaxinning ta'kidlashicha, toponim leksik birlik sifatida o'zida minimal va maksimal axborot tashiydi. Ma'lum geografik obyektni nomlashi, obyekt nega aynan shu nom bilan nomlanishini ko'rsatishi uning minimal axborot tashishi bo'lib hisoblanadi. Axborotning diaxronik va funkstional tiplari esa maksimal axborot bo'lib hisoblanadi. Bu axborotlarni maxsus lingvistik tadqiqotlar yordamida aniqlash mumkin bo'ladi. Axborotlarning funkstional tiplari individual va beqaror xarakterda bo'lib, obyektning ijtimoiy statusi yoki insonning obyektga munosabati o'zgarishi bilan ularning vazifasi ham o'zgaradi [47, 84].

Ayni paytda, toponimik birlikdagi leksik-semantik ma'no odatdagi boshqa lingvistik birliklarning ma'nosidan o'zining qandaydir tarixiy, geografik yoki etnografik mazmunga egaligi bilan farqlanib turadi. Bu xususda T.Enazarov quyidagilarni yozadi: «... so'zning asl ma'nosidan tashqari yana tarixiy vaqt va tarixiy ijtimoiy jarayonlar tomonidan yukla(n)gan qo'shimcha ma'nolari bilan ham mavjud bo'lgan joy nomlari ham bor. Bu o'rinda toponimlarga xos tarixiylikni

oʻzida jamlagan tarixiy-tadrijiylik tamoyili terminini qoʻllash oʻrinli» [19, 47]. Yana bir farq shundaki, «toponimika nafaqat aniq bir tilning odatdagi soʻz yasash modellari va soʻz birikmalari tiplaridan foydalanadi, balki uni yaratuvchilar tilida amalda boʻlmagan oʻz modellari va soʻzlarini yaratishga ham qodirdir» [19, 87].

Bu maʼnolarni aniqlash hamma vaqt ham oson kechavermasligi mumkin. Uning boshqa tillarga daxldorligi, substrat xarakterda ekanligi, yoki boʻlmasin, uzoq zamonlar oʻtib, soʻz qurilishi oʻzgarishlarga yuz tutganligi, maʼnosi anglab boʻlmaydigan darajaga kelganligi hamda oradan oʻtgan vaqt mobaynida xalq tilining oʻzida sodir boʻlgan oʻzgarishlar bunga sabab boʻladi. Bu kabi qiyinchiliklardan qatʼiy nazar, toponimik birliklar etimologiyasini aniqlash bu yoʻnalishdagi tadqiqotlarning pirovard maqsadi boʻlib qolaveradi.

Darhaqiqat, har qanday tilning toponimik tizimida substrat toponimlar oʻziga xos oʻringa ega. Asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar silsilasida arab, moʻgʻul, fors-tojik, rus, turkiy va boshqa xalqlar bilan madaniy-maishiy aloqadorlikda boʻlib kelgan oʻzbek xalqining lugʻat boyligida esa toponimlarning bu turi alohida oʻrin tutadi. Afsuski, oʻzbek tilshunosligida substrat toponimlarning lingvistik xarakteri toʻgʻrisida hozirgacha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Vaholanki, A.K.Matveev «toponamastika oʻzining aynan mana shu jabhasida nafaqat til evolyustiyasining detallarini aniqlashtirish yoki kuzatishlar yoʻnalishini koʻrsatish, balki mutlaqo yangi faktlarni ochishga ham qodir» ekanligini koʻrsatib oʻtgan edi [36, 58].

V.A.Nikonov esa ushbu fikr aytilishidan 12 yil avval bu borada quyidagi mulohazalarni bildirgan edi: «Bu yoʻl, odatda, biz yurgan yoʻlga prinsipial qarama-qarshidir. Toponimikani til orqali emas, balki tilni toponimika orqali izohlash lozim» [16, 14].

Toponimik maʼno minimal axborotdan - obyektning koʻrsatishdan tashqari, obyekt haqida muayyan milliy-madaniy, jamoaga yaxshi tanish boʻlgan qoʻshimcha maʼlumot ham beradi.

Toponimdan oʻsib chiqqan keyingi maʼno, yaʼni belgilangan obyektning qandaydir alohida belgisini birinchi oʻringa olib chiqish natijasida tugʻiladigan

ma'no, til egalari ommaviy (obyedenny) ongida dolzarb bo'lgan obyekt obrazining mantiqiy davomi va toponimdan o'sib chiqqan keyingi ma'noni ifodalovchi so'z yasash ijtimoiy *determinlashuvining* yorqin namoyishi bo'lib hisoblanadi. Biroq milliy ongda toponimdan «unadigan», ya'ni toponimdan keyingi konnotativ ma'no birmuncha qiziqish uyg'otadi [.84].

S. Qoraevning «Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?» [23, 17] asarida keltirilgan *qo'qon arava, chust pichog'i, akademiya, vulqon, kofe, jersi, olimpiada, roman* kabi so'zlar ham toponimlardan o'sib chiqqan, toponimlardan nom olgan elementlar, ya'ni ottoponimlardir. Ularni *omonxona suvi – omonxona, marg'ilon atlası – marg'iloni, iroqi do'ppi – iroqi, bog'izog'on vinosi – bog'izog'oni* kabi so'zlar hisobiga boyitish mumkin.

R.Z.Muryasov bu kabi ottoponimlar doirasida quyidagi semantik turkumlar mavjudligini ko'rsatgan edi:

- 1) millat vakillarini, turli davlatlarda yashovchilarni, shaharlar, aholi punktlari, orollarni va geografik jarayonlarni;
- 2) kasb-hunar, mutaxassislik, biror mashg'ulotga qiziquvchi shaxslarni;
- 3) salbiy xususiyatlarga moyil bo'lgan shaxslarni;
- 4) ilmiy oqimlarga, dinlarga daxldor shaxslarni;
- 5) shaxsning irqiy daxldorligini;
- 6) bilim sohasi, ijtimoiy va diniy oqimlar, ta'limotlarni;
- 7) abstrakt tushunchalarni, kishilarning sifati, mavqei va xarakterini;
- 8) mashinalarni, asbob-uskunalarini, texnik vositalar va boshqa predmetlarni;
- 9) oziq-ovqat turlarini;
- 10) u yoki bu joylarda ishlab chiqilgan ichimlik turlarini, o'simliklarni (kofe, tamaki), mevalarni;
- 11) jonivorlarni;
- 12) qo'shiq va raqslarni;
- 13) gilamlar, matolar, kiyim turlari va boshqa mahsulotlarni;
- 14) pul birliklarini;
- 15) jamlovchi otlarni;

16) geologik jinslar va kimyoviy elementlarni ifodalovchi guruhlar [37, 78-79] kabi.

Ottoponimlarni toponimlardan yasalgan yangi soʻz sifatida eʼtirof etish mumkinligi ularning oʻzbek tilida, uning soʻz yasash tizimida alohida mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Toponimlar negizida yangi maʼnodagi soʻzlarning paydo boʻlishi ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy omillar bilan bogʻliq ekan, kelajakda bu muammolar oʻzbek tilshunosligida ham oʻrganilishi zarur.

2.2. Toponimlarning fonetik va grammatik xususiyatlari.

Toponimlarning fonetik xususiyatlari. Toponimik birliklar tarkibidagi fonetik jarayonlarni tahlil etish ham, shubhasiz, qiziqish uygʻotadi. Toponim tarkibidagi qaysi unlilar yoki qaysi boʻgʻinlarga urgʻu tushishini hozirgi oʻzbek tili fonetik qoidalari bilan solishtirib koʻrish mumkin. Chunki har bir til toponimikasi muayyan fonetik xususiyatlarga ega. Lekin toponimlarning bu xususiyatlari bilan oʻzbek tilshunosligida hech kim maxsus shugʻullangan emas. Vaholanki, tilning dialektal xususiyatlarini oʻzida aks ettiruvchi toponimlarni fonetik jihatdan oʻrganish tarixiy fonetikaga oid koʻplab munozarali masalalarga, tillarning qardoshlik jihatlariga oydinlik kiritishi mumkin.

Shuning uchun ham V.A.Nikonov bu sohadagi vazifalarni belgilab, «Tadqiqotning fonetik aspekti – toponimikada amalga oshirilishi lozim boʻlgan navbatdagi qadamdir. Hozirda yaxshi maʼlum boʻlgan tilda tugʻilgan nomlarning fonetik tahliliga hojat yoʻq, ularni semantik jihatdan oʻrganish maʼqul; ammo shu tildagi nomlarning oʻtmish tabiatini semantik, hatto leksik tahlil etish etarli boʻlmasligi mumkin va birinchilikni soʻz yasalishi baʼzan fonetikaga boʻshatib beradi va nihoyat, agar nomni tugʻdirgan tilning oʻzi maʼlum boʻlmasa, soʻz yasalishi tahlili hamma vaqt ham amalga oshavermaydi va fonetik tahlil asosiy boʻlib qoladi. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish maʼnosizdir. Ular bir hodisaning turli tomonlarini oʻrganadi», degan edi [41, 106-107].

Toponimlarning grammatik xususiyatlari. Toponimlar oʻziga xos boʻlgan morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. *Morfologik jihatdan* olib qaralganda, toponimlarning asosiy qismini ot soʻz turkumiga oid soʻzlar tashkil qiladi. Buning

sababi shundaki, ibtidoiy holatida boshqa soʻz turkumiga tegishli boʻlgan toponimlar strukturasida ham vaqt oʻtishi bilan soddalanish, qisqarish, koʻchish kabi jarayonlar sodir boʻladi. Tarkibiy jihatdan tobora ixchamlasha boradigan toponimik qurilma bir soʻzga aylanadi va ot shaklini oladi. Ana shuning uchun ham otlarga oid soʻzlar boshqa soʻz turkumlariga qaraganda koʻpchilikni tashkil qiladi. Feʼl va sifatga oid soʻzlar otlarga qaraganda son jihatdan ozdir. «Koʻpchilik geografik nomlar asosida vaqtlar oʻtishi bilan atoqli otlar maqomini oladigan turdosh otlar yotadi», deydi E.M.Murzaev va aholi yashaydigan joylar nomida birinchi kelib joylashgan mahalliy aholining ismlari, laqablari nisbatan koʻproq uchrashini, koʻplab toponimlar bir xil, turgʻun takrorlanadigan qoʻshimchlarga egaligini, boshqa formantlar esa suffikslar koʻrinishida faqat grammatik vazifani bajarishini taʼkidlaydi [7, 81-82].

Toponimlarning morfologik xususiyatlari borasida ishning tahlil usullari, jumladan, formantlarga qarab tahlil etish usullari qismida ham soʻz yuritamiz.

Toponimlarning *sintaktik xususiyatlari* haqida ilmiy adabiyotlarda deyarli soʻz yuritilmagan. Buning boisi shundaki, atoqli otlar sifatida toponimlar deyarli bir soʻzdan iborat boʻladi. Soʻz birikmasi shaklidagi toponimlar ham vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzga aylanadi va sintaksisning tekshirish doirasidan chiqib ketadi. Birikma shaklidagi, toponimik aniqlagichli qurilmali elementlarning bir soʻzga aylanish jarayoni ham substantivastiyaning umumiy fonidagi lingvistik jarayondir. Shuning uchun ham A.L.Xromov «Soʻz qoʻshilishi va soʻz birikmasi prinsipida shakllangan toponimik modellarni oʻzaro aloqadorlikda olib qarash lozim. Chunki birinchidan, ular oʻrtasiga keskin chegara qoʻyib boʻlmaydi va ikkinchidan, ularning tarkibiga, odatda, bir xil kalit soʻzlar kiradi» deb yozgan edi [17, 13].

2.3. Toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari.

Toponimlarning leksik-semantik guruhlarini belgilash, ularni ma'lum tiplarga ajratish va shu asosda tasniflash bu birliklarning ma'nolarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Toponimlarning leksik-semantik ma'nolarini aniqlash orqali nomlar etimologizastiyasiga boriladigan yo'l yaqin bo'lganligidan tadqiqotlarda, asosan, lingvistik birliklarning ana shu xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Garchi toponimik leksika o'zbek tili leksik tizimining umumiy fonida qaralsa-da, ayni paytda, o'ziga xos semantik va funkstional xususiyatlarga ham ega. Bu xususiyatlar, eng avvalo, xalq geografik atamaları kompleksining toponimlar tarkibida, xoh toponegiz, xoh topoformant, xoh topoaniqlagich shaklida bo'lsin, faol uchrashida namoyon bo'ladi. Ular orasida oq (Oqsaroy, Oqtepa, Oqsuv, Oqqo'rg'on), qora (Qorasuv, Qoratepa, Qoraqishloq, Qorateri, Qorayantoq), ko'k (Ko'ksaroy, Ko'kdala, Ko'ktosh, Ko'ktepa) kabi rang bildiruvchi, katta (Kattaqo'rg'on, Kattaming, Kattanayman, Kattasoy, Kattaqishloq), kichik (Kichikko'rpa, Kichikming, Kichik Naymancha, Kichik Qorayantoq), yuqori (Yuqori Chirchiq, Yuqori Kalangar, Yuqori Ovul, Yuqori Olg'ar), quyi (Quyi Chirchiq, Quyi guzar), o'rta (O'rta Chirchiq, O'rtabo'z, O'rtabozor, O'rtashiq), past (Pastdarg'om, Pastkalangar, Pastguzar), yangi (Yangiariq, Yangier, Yangiyo'l, Yangikent, Yangiobod, Yangiqo'rg'on), eski (Eski Juva, Eski Juma, Eski Anhor, Eski Jomboy) singari hajm, holat hamda o'ringa munosabat bildiruvchi sifatlar, bog' (Ovg'onbog', Gulbog', Bog'i baland, Bog'izog'on), tog' (Oqtog', Qoratog', Bobotog'), daryo (Oqdaryo, Qoradaryo), ko'l (Haydarko'l, Tangriko'l, Orziko'l), tepa (Oqtepa, Qoratepa, Polvontepa), qal'a (Ellikqal'a, Qo'yqirilgan qal'a), qishloq (Qulqishloq, Qoraqishloq, Jarqishloq), quduq (Jalolquduq, Qo'shquduq, Boshquduq) kabi otlar shular jumlasidandir.

O'zbek tilida adirlar, bog'lar, bozorlar, guzarlar, daryolar, dengizlar, ko'llar, ko'priklar, ko'chalar, mahallalar, machitlar, ovullar, tepalar, tog'lar, choyxonalar, cho'llar, shaharlar, ekinzorlar, qabristonlar, qal'alar, qirlar, qishloqlar, quduqlar,

hovuzlar kabi yuzlab geografik obyektlar mavjud va ularning barchasi qadimdan o'z nomlariga ega. Bu geografik joy nomlari agroonimlar, antropooykonimlar, antropotoponimlar, gelonimlar, gidronimlar, drimonimlar, drionimlar, dromonimlar, komonimlar, limnonimlar, oykonimlar, oronimlar, paragagonimlar, pelagonimlar, polisonimlar (polionimlar), potamonimlar, speleonimlar, teotoponimlar, topotoponimlar, urbonimlar, fitonimlar, fitooykonimlar, xoronimlar, etnooykonimlar, etnotoponimlar singari xalqaro atamalar ostida birlashadi.

Xalqaro nomlar bilan geografik atamalarning yuqorida keltirilgan o'zbekcha atalishlari aynan bir xil bo'lmasligi mumkin. Chunki Yer yuzining barcha o'rinlarida ham mahalliy joy nomlari bir xilda atalmasa-da, ularning tiplari bir xildir. Shuning uchun ham xalqaro atamalarni birinchi o'ringa qo'ygan holda vaziyatga qarab ularning har ikkala variantidan ham foydalanishga to'g'ri keladi.

Ayni paytda, toponimlarni bir tizim va tartibga keltirish, binobarin, semantik ma'nolarining yaqinligidan kelib chiqib, ma'lum guruhlar bo'yicha tasniflash zaruriyati mavjud. O'rganilgan ilmiy manbalarga tayanilgan holda o'zbek tilida toponimlarning quyidagi guruhlari mavjudligini qayd etamiz:

Agroonimlar. Toponimning ushbu turi yunon. *agros* «dala» ma'nosini anglatgani tufayli qishloq xo'jalik erlari - *bog'lar, ekinzorlar, dalalar, marzalar, er uchastkalari* va shu kabilarni ushbu guruhga kiritish mumkin.

Antropotoponimlar / antropooykonimlar - kishi nomlari, familiyalar, laqablar asosida yaratilgan joy nomlari.

Gidronimlar (yunon. *gidro* - suv) - suvga daxldor toponimlar. Pelagonimlar – dengizlar; potamonimlar – daryolar; limnonimlar – ko'llar; gelonimlar – botqoqlar va buloqlar; ariqlar, soylar, kanallar, kechuvlar, quduqlar, hovuzlar shu guruhga kiritiladi.

Oronimlar - tog'larning nomlari. Shu guruhga cho'qqilar, tepalar, qirlar, dovonlar, daralar, jarlarni ham kiritish mumkin. Gidronimlar va oronimlarga oid ma'lumotlar, ayniqsa, ularning nomlanish xususiyatlariga oid fikrlar H.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" [26] nomli asarida batafsil keltirilgan.

Oykonimlar (yunon. *oykos* – uy, turarjoy) ni ikki guruhga bo‘lib qarash to‘g‘ri bo‘ladi: 1) ma‘muriy hududlar nomlari: *xoranimlar* – viloyat, o‘lka va mamlakatlarning nomlari; 2) aholi yashaydigan joy nomlari - *urbonimlar* / *polisonimlar* / *polionimlar* (yunon. *urbonim*, *polis*) – shaharlarning nomlari; *komonimlar* - qishloq, ovul, guzarlar, mahallalar, ovullar, qal‘alar, xullas, kichik turar joylarning nomlari. N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar *maydonlar*, *ko‘priklar* va *minoralar* ni ham shu guruhga kiritishgan [46, 142]. Oykonimlar haqidagi batafsil ma‘lumotlar N.Oxunovning asarida [14] atroflicha tahlil etilgan.

Toponimikada *odonimiya* atamasi ham mavjud bo‘lib, mikrotoponimlar tizimida qaraladi va yo‘lning shahar, qishloq yo‘llari, ko‘chalar, prospekt, xiyobon, yo‘lak singari ko‘rinishlarini qamrab oladi. T.Rahmatov «Samarqand odonimlari» maqolasida «odonimiya» atamasi ostida suvdagi va quruqlikdagi barcha yo‘llarni, jumladan, ko‘chalar, yo‘laklar va boshqalarni tushunish, bizningcha, mantiqiydir, deydi.

Paragagonimlar – tashkilot va korxona kabilarning nomlari.

Speleonimlar – g‘orlarning nomi.

Teotoponimlar – xudolar, payg‘ambarlarning nomlari.

Topotoponimlar – joy nomlaridan yasalgan joy nomlari.

Fitotoponimlar/ fitooykonimlar - o‘simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan joy nomlari.

Etnotoponimlar (etnografik toponimlar) / etnooykonimlar/ genotoponimlar - xalqlar, millatlar, urug‘lar nomlaridan yasalgan joy nomlari.

O‘zbekiston toponimlarining ko‘pchilik qismini tashkil etadigan etnotoponimlar o‘zbek xalqining kelib chiqish, migrastiyasi va O‘rta Osiyo xududida joylashuvi haqida ma‘lumotlar to‘plashda, tarixiy-madaniy darajasini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Etnograf akademik Yu.V.Bromley «Etnografiya va lingvistika (qisman, geografiya ham) kesishgan joyda toponimik kuzatishlarning favqulodda murakkab «zona»si yotadi, degan edi [31, 223]. Chunki toponimik kuzatishlar u yoki bu xalqning etnogenezisida qaysi elat va qabilalar ko‘proq ishtirok etganligi, qaysi

urf-odatlar va an'analarning saqlanib qolishida faol bo'lganligi haqida xulosalar chiqarishda ko'maklashadi.

Darhaqiqat, joylarning nomlanishiga qarab, ushbu hududda ma'lum bir xalq yoki millatning joylashishi va shakllanishida ishtirok etgan urug'lar va elatlarni aniqlash oson kechadi. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, muayyan hudud tarixi va unda yashayotgan xalqlar tarixi haqida gap ketar ekan, toponimika masalalarini chetlab o'tib bo'lmaydi.

Bulardan tashqari, bozorlar, machitlar, choyxonalar, qabristonlarning nomlari mavjudki, ularni yuqoridagi toponimik guruhlarining birontasiga ham kiritish qiyin. N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalarning «Terminologiya onomastiki» nomli maqolasida bu atamalarning asosiy qismining mazmuni nimadan iborat ekanligi haqida sharhlar berilgan [46, 43].

Eskimoslar toponimlari bilan shug'ullangan G.A.Menovshikov toponimlarning fonomorfologik va etimologik jihatlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozimligini qayd etgan edi: «1. Toponimlar o'zgarmas holatda saqlanadi...; 2. Toponimlarning ma'lum til vakillariga tegishliligi o'zak morfemaning leksik ma'nosiga, agar jonli tildagi ma'nosi yo'qolgan bo'lsa, uning modeliga qarab aniqlanadi; 3. Toponimlarning murakkablashuvi hududning yangi egalari tilidagi fonomorfologik va leksik vositalar bilan yuz beradi; 4. Aholi yashaydigan joy va geografik obyekt ikki tilda nomlanadi (bunda kalkalash ham ehtimoldan holi emas); 5. Kelib chiqishiga ko'ra chet so'z bo'lgan toponim o'zlashtirilgan tilning u yoki bu modeliga moslashtiriladi [Ma'lumot S.Qorayev kitobidan olindi].

Toponimlarda lokal xususiyatlar ustun. Bu esa toponimlarning semantik jihatdan mahalliy tabiiy sharoitga oid so'zlarni qamrab olishi bilan izohlanadi.

2.4. Toponimlarning stilistik xususiyatlari.

Toponimlar qaysi fanlar doirasida o'rganilishidan, qaysi fan uchun ko'proq manfaat keltirishidan qat'iy nazar, u avvalambor, til materiali hisoblanadi. Shuning uchun ular tilning boshqa birliklariga xos bo'lgan xususiyatlardan, jumladan, stilistik xususiyatlardan ham holi emas. Toponimlar o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, yana qo'shimcha ma'nolarni aks ettiradigan ushbu ma'nolar, odatda, stilistik ma'nolar deyiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda *poetik onomastika* tushunchasi mavjud.

Ayrim toponimlarning leksik ma'nosi, etimologiyasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ulardan ma'lum stilistik ottenkalar anglashilib turadi. Masalan, *Begijon, Valijon, Gulzor, Gulbog', Guliston, Gulqishloq, Go'zalkent, Do'stlarobod, Jonirohat, Zarbuloq, Zafarobod* kabi toponimlarning qo'llanilishida yoqimlilik ottenkasi mavjud. Ularning joy nomlarini yaxshi niyat bilan atashga xizmat qilayotganligi, bunda *jon, gul, zar, obod* kabi so'zlardagi ijobiylik ottenkasi ko'maklashayotganligi sezilib turibdi. Nomlarning ikkinchi bir qutbidan aslida etimologik jihatdan biror bir urug' yoki uning shaxobchasi bo'lgan, salbiy ma'no ottenkalari anglashilib turadigan toponimlar joy oladi. Masalan, *Galatentak, Yovuzxo'r, Yomon telpak, Jomonto'p, Kal, Kalqishloq, Qulqishloq, Kartepa, Olaxotin, Tentak, To'rtho'kiz, Xo'jabachcha, O'liqishloq, O'pka* kabi. Bu kabi stilistik ottenkalarga e'tibor qilish ham toponimlar etimologiyasining aniq bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Geografik nomlar frazeologik birikmalar tarkibida alohida uslubiy vazifani ado etadi. Masalan, *Gap desang qop-qop, ishni Makkadan top; Onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq; Tentakka To'ytepa bir qadam; Dongi Dog'iston ketdi* singari frazemalarni olib qaraylik. Ular tarkibidagi joy nomlari frazemalarning yuzaga kelgan o'rnini taxminan ko'rsata olishi mumkin. *Uchqo'rg'on* va *To'ytepa* singari birliklar mana shu vazifani ado etishga xizmat qilmoqda. Ammo bu o'lchovni frazemalar tarkibidagi barcha toponimlarga qo'yish mantiqsizlikni keltirib chiqaradi. Chunki *Gap desang qop-qop, ishni Makkadan top* birligi tarkibidagi *Makka* frazemasini shakllangan o'rinni emas, balki masofaning

nihoyatda uzoqligiga ishora etmoqda. Ayni paytda, *Dongi Dog'iston ketdi* frazemasida tarkibidagi *Dog'iston* so'zining ishtirokiga bu ikki holatning ham umuman aloqasi yo'q. U shunchaki frazemadagi *dong* so'ziga uyg'un, hamohang tarzda tanlangan joy nomi, xolos. Bu fikrlardan frazemalar tarkibida toponimlarning ishtirok etishidan turlicha maqsadlar ko'zda tutilishi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Shu bilan birga, bu kabi ishtirok etishda aynan stilistik maqsad ko'zda tutilgan, degan fikrni aytishdan ham yiroqmiz. Ammo frazeologik matndan shu narsa ayonki, ular gapda toponimik birlik sifatida ma'no ifodalash doirasidan chiqqan va ularga ustama ma'no yuklanib, umuman joy, manzil ma'nolarini anglatmoqda hamda o'zida ma'lum stilistik ma'no tashimoqda. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, frazema keltirib chiqaradigan stilistik ottenkani butunlay toponimga yuklab qo'yish ham to'g'ri emas. Chunki har qanday frazemaning o'zida ekspressivlik, binobarin, stilistik ma'no mavjud. Uning tarkibiy qismiga aylangan toponim esa turg'unlik ichida turg'unlik kasb etib, ana shu ma'noning yanada reallashuviga ko'maklashmoqda, xolos. Agar shunday bo'lmaganda edi, ularning o'rniga boshqa toponimlarni qo'llash mumkin bo'lar edi.

Toponimlar tarkibidagi formantlarda, ya'ni ayrim qo'shimchalarda ham tilga xos bo'lgan stilistik ottenkalar namoyon bo'lishi mumkin. N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar tildagi subyektiv baho shakllarini ana shunday morfologik birliklar sifatida qarashib, ular toponimlarga *meliorativ* (ko'tarinkilik), *peyorativ* (kamsituvchi), *deteriorativ* (pasaytiruvchi) yoki *gepokoristiv* (erkalovchi) ma'no ottenkalari berishi mumkinligini qayd etishadi [46, 146]. Bu holatni o'zbekcha toponimlarda ham faol kuzatamiz.

Masalan: *Alijon, Valijon, Begijon* (Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloqlar) kabi toponimlardan iliqlik, erkalash ottenkalari anglashilib turadi. B.O'rinboev «Asrlardek barhayot nomlar» kitobi [21]da *Bakalchoq/Baqalchoq* (Payariq, Jomboy) toponimi tarkibidagi *choq* ni munosabat anglatuvchi affiks deb to'g'ri baholagan. Ammo olim izohlanganidek, *bakal* - qoraqalpoqlarning qo'ng'iroq qabilasi tarkibidagi bir urug'i bo'lsa, *-choq* ning unga qo'shilishi sun'iydir. Bu

masalaning etimologik jihati va u, ayni paytda, e'tiborimizdan tashqarida turadi. So'zning bugungi qo'llanilishida *choq* da haqiqatdan ham munosabat, ya'ni xuddi *maqtanchoq*, *erinchoq*, *qo'zichoq* so'zlaridagi singari kichraytirish, erkalash ottenkalari mavjud va bu so'zning stilistik jihati bo'lib hisoblanadi.

Etnotoponim bo'lgan *Mirzabachcha* (Narpay), *Xo'jabachcha* (Bulung'ur) atamalari tarkibidagi *bachcha* affiksoidi B.O'rinboevning yuqorida nomi tilga olingan kitobida ikki xil talqin qilinadi. «*Mirza* – kotib, savodli, o'qimishli odam; yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob. *Mirzabachcha* – o'qimishli, savodli bola demak», *Xo'jabachcha* dagi «*bachcha* fors-tojik tilidan olingan bo'lib, u bola; birovning qaramog'ida va ixtiyorida bo'lgan xushro'y, kelishgan o'yinchi o'g'il bola, besoqol, raqqos ma'nolaridadir». Uning –*vachcha* variantli *Boyvachcha* (Jomboy) ko'rinishi ham mavjud. Ushbu toponimlar tarkibidagi *bachcha/vachcha* ning bugungi qo'llanilishida salbiy ottenkaning kuchliligi seziladi.

Torinjak (Urgut), *Qunduzak* (Toyloq) toponimlari tarkibidagi –*ak*, *Qizilravotcha*, *Bog'licha* (Pastdarg'om) tarkibidagi –*cha* qo'shimchasi ham kichraytirish ottenkasini beradi. Ammo ularni *Ag'roncha* (Nurobod), *Buloqcha* (Pastdarg'om) toponimlari tarkibidagi –*cha* bilan aralashtirish kerak emas. Bu so'zlar tarkibida u stilistik ma'no anglatayotgan emas, balki shunchaki kichiklik ma'nosini bermoqda. Chunki Nurobod tumanida yana *Ag'ron* qishlog'i bor. Qo'shrabot tumanida esa *Buloq* qishlog'i mavjud. Umuman, *Ag'roncha* *Ag'ron* ga, *Buloqcha* *Buloq* qa nisbat berib qo'llanilganligi va bir qishloqning geografik ko'lamini ikkinchidan kam ekanligi haqiqatga mos keladi.

O'zbek tilida –*cha* qo'shimchasining *kichik*, *mayda* so'zlari bilan sinonimik munosabatga kirishishi ma'lum. Shuning uchun ham o'zbeklarda *Nayman*, *Nayman qishloq*, *Naymancha*, *Katta Nayman*, *Kichik Nayman* toponimlari uchraydi. Ayni paytda, yana *Kichik Naymancha* (Pastdarg'om), *Katta Naymancha* (Pastdarg'om) toponimlarining uchrashi va bunda –*cha* qo'shimchasining ishtiroki nafaqat kichraytirishni, balki erkalash ottenkasini ham beradi. Chunki bu o'rinda hududiy birlikning keng yoki torligini ko'rsatuvchi *katta* va *kichik* so'zlari ishtirok etmoqda. *Kichik buloqcha* (Pastdarg'om) toponimi ham ana shu mazmun va

modeldadir. Stilistik nuqtai nazardan qaraganda Narpay tumanidagi qishloq nomi - *Mayda qozoq* e'tiborimizni tortadi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, *-cha* qo'shimchasi *mayda* so'zi bilan ham sinonimdir. Shunday ekan, nega endi qishloqning nomini *Qozoqcha* deb bo'lmaydi? Shuning uchunki, bu o'rinda *-cha* dagi kichiklikni ko'rsatishga nisbatan kichraytirish, mensimaslik ottenkasi ustunlik qilib qoladi. Nomlanishda esa joyning yoki joy nomiga asos bo'lgan etnonimning kichikligi nazarda tutilgan. Nom qo'yuvchilar tomonidan esa bu holat noziklik payqalgan deb bemalol ayta olamiz.

Ko'kcha (Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on), *G'alcha/G'archa* (Toyloq), *Qoracha* (Ishtixon, Narpay) toponimlari tarkibidagi *-cha* ning so'z o'zagiga qo'shgan ma'nosi hozirgi kunda sezilmas darajaga kelgan.

Toponimlardagi stilistik ottenkalarni kuzatish jarayonida qiziq faktlarga duch kelamiz. Pastdarg'om tumanida *Katta buloqcha* degan qishloq bor. O'zbek tilida *katta* so'zi *-cha* ga oppozistiyada turadi, ularning yonma-yon kelishi xuddi poetik matndagi oksyumaronga o'xshab ketadi. Ammo bu o'rinda toponimga bu darajada munosabat bildirishga hojat yo'q. Chunki buloqning nomlanishida oddiy jarayon – qiyoslash jarayoni yuz bergan, xolos. *Buloqcha*, aytaylik, uning yaqinrog'idagi kattaroq buloq – *Katta buloqcha*. Bir joyning nomi bo'lgan *Buloqcha* aynan o'xshash bo'lgan ikkinchi joyning nomiga shundayligicha ko'chirib qo'ya qolingan. Ushbu holat ham xalqning ruhiyatiga mos keladi. Bu toponimdan stilistik mazmun axtarish maqsadga muvofiq emas.

Asosli bir savol tug'iladi: toponimlar tarkibidagi formantlarning stilistik ma'no anglatishi qachon sodir bo'lgan. Ular qo'shilgan so'zning apellyativ holatidami yoki toponimga aylangandan keyingi holatidami? Savol qiziqarli va munozarali.

Bu savolga bir xil javob berib bo'lmaydi. Chunki, *Alijon*, *Valijon*, *Begijon* kabilarda kishilarning nomlari sifatida apellyativ holatda ham ilqlik, erkalash ottenkalari anglashilib turadi. Hatto bu ottenkalar qo'llanish chastotasi hamda umumiylik va xususiylik bilan bog'liq ravishda joy nomlariga qaraganda kishi nomlarida kuchliroq ifoda etiladi.

Mirzabachcha, Xo'jabachcha toponimlariga kelganda munosabat biroz o'zgaradi. Ular aniq bir insonga nisbatan qo'llanganda, ya'ni apellyativ holatda dastlabki ma'nolari ijobiy bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo toponimlarga aylangandan keyingi nomlanish bilan hozirgacha o'tgan vaqt o'rtasidagi masofa ta'siridanmi, bu ma'noni da'vo qilib bo'lmaydi.

Torinjak, Qunduzak, Kichik Naymancha, Katta Naymancha toponimlarida boshqacha manzarani kuzatamiz. Ulardagi stilistik ma'no so'zlarning toponimga aylanish jarayonida shakllangan. Chunki *Torinj, Qunduz* shaklidagi so'zlarda kichraytirish ottenkasi yo'q. *Kichik Nayman, Katta Nayman* toponimlarida ham shunday. Keyingi ikki toponimda *-cha* nafaqat kichraytirish, erkalash ottenkasini bergan, balki bir joyni ikkinchi joydan farqlovchi qo'shimcha ma'no ham bera olgan. Masalan: *Kichik Nayman* → *Kichik Naymancha, Katta Nayman* → *Katta Naymancha* kabi.

Toponimlar lingvistik birlik sifatida bu kabi stilistik ma'no ottenkalarini berishdan tashqari, geografik joy ma'nosi sifatida barcha uslublarda bab-baravar ishlatilaverish huquqiga ega va shuning uchun ularni funkstional jihatdan chegaralash maqsadga muvofiq emas.

Kelajakda toponimlarga xos bo'lgan shu stilistik xususiyatlar alohida tahlil etilishi lozim.

Xullas, toponimlarning qarab chiqilgan stilistik jihatlari ularni o'zbek tili va uning onomastikasi sohasining tarkibiy qismi sifatida qarashdan tashqari tilning har bir yarusida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turishini ham ko'rsatadi. Binobarin, toponimik tahlil jarayonida bu jihatlarni hisobga olish tadqiqotlarning aniq va asosli bo'lishini ta'minlaydi.

2.5. Toponimlarning yasalishi va tuzilishi.

Har bir tilning soʻz yasash qonuniyatlari, shubhasiz, toponimik soʻz yasash tizimida ham oʻz ifodasini topadi. Ammo toponimik soʻz yasashning har bir tilda oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun ham masalaning bu jihatini oʻrgangan S.Qoraev «slavyan toponimik tipida affikslar (affiksastiya) asosiy oʻrin tutadi desak, turkiy toponimik tipda soʻzlar qoʻshilmasi (slovolojenie) birinchi oʻrinda turadi», deb taʼkidlagan edi [24, 14].

Bu oʻziga xosliklarni tahlil etishdan avval toponimik soʻz yasashining anʼanaviy usullari haqida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq boʻladi.

Toponimlar strukturasida toponegiz, topoformant, toponimik aniqlagichlar mavjud. «*Toponegiz* – bu topoformantlarni qoʻshish vositasida negizida toponimlar shakllanadigan har qanday leksik morfemadir» [24, 3-4]. Toponegizlar, odatda, tub soʻzdan va juda koʻp hollarda bir yoki ikki boʻgʻinli qurilmalardan iborat boʻladi: *Adas, Andoq, Baland, Saroy* kabi. Shu bilan birga, u yasama soʻzdan tashkil topgan boʻlishi ham mumkin: *Vatak, Vatkan, Javtug, Jozmon* singari.

Bu strukturadagi ikkinchi shakl *topoformantlardir*. «Topoformantlar apellyativ leksikadan onomastik leksika uchun topoleksema yasaydigan qoʻshimchalar hisoblanadi», deydi N.V.Podolskaya [46, 9].

«Topoformantlar – toponimik soʻz yasash vositasi sifatida qoʻllaniladigan qoʻshimchalar yoki ularga teng boʻlgan yordamchi morfemalardir» [46, 3-4]. Demak, topoformantlar ham yasovchi qoʻshimchalardir. Ammo ularning tildagi boshqa qoʻshimchalardan farqi shundaki, u toponimika sohasiga xoslangan. Ular, asosan, quyidagilardir: *-ay, -ak, -al, -ar, -vul, -gan, -gun, -i, -il, -kan, -lash, -li, -lik, -loq, -ma, -ni, -oq, -t, -ul, -cha, -chi* kabi. Ularga nisbatan tilshunosligimizda *affiks/qoʻshimcha, formant/topoformant* atamalari qoʻllanilmoqda.

Topoformantlar tarkibida shunday affikslar mavjudki, ularning etimologiyasini aniqlash (oradan uzoq davrning oʻtganligi ham bunga sabab boʻlishi mumkin) nihoyatda qiyin. Shuning uchun ularni L.Karimova «Toponimlarning morfologik tuzilishi» nomli maqolasida «qotgan affikslar» deb

ko'rsatgan. Masalan: *Cho'r+noq, Qar+noq, Sig'+noq, O't+ror, Ar+quq* kabi [80-81]. Bu holatni N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar *nol toponimik affikslar* deb atashgan [46, 144].

Taniqli toponimist olim E.M.Murzaevning mahalliy geografik turdosh atamalarining hech qanday o'zgarishlarsiz atoqli otlarga aylanish qonuniyati haqidagi fikri mavjud. Ana shu qonuniyatga asoslaniladigan bo'lsa, ular bu jarayonda toponegizga aylanadi va o'ziga yangi mazmun kashf etgan holda toponimik tizimdan mustahkam o'rin egallaydi. Toponimik elementlar o'rtasidagi o'zaro semantik yaqinlik topoformantning toponegizga aylanishiga sabab bo'ladi. [7, 82]. Masalan: *Nurak, Nurakli, Nog'orachi, Nurdum, Sovg'on, Sazag'on* kabi.

Demak, toponimlarning vujudga kelishida tildagi *o'zak+qo'shimcha=morfema* ga teng keladigan *toponegiz+topoformant* =*toponegiz* jarayoni uzluksiz davom etib turadi. Topoformantlar «qotgan bo'lishi» yoki so'z tarkibida nol holatga kelganligidan qat'iy nazar toponimlar etimologiyazastiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan o'rganishning ahamiyati ham ana shunda.

Toponimik ma'no anglatuvchi uchinchi shakl toponimik aniqlagichli birikmalardir. Ular toponegiz va topoformantlardan struktural farqli ravishda toponimik birikma tarkibida bo'ladi. Manbalarda ushbu aniqlagichlar sifatida *ariq, adir, buloq, dala, jilg'a, yo'l, ko'l, ko'priq, ovul, suv, soy, tosh, to'qay, tepa, tog', cho'l, cho'qqi, quduq, qoya* singari leksik birliklar e'tirof etiladi.

«Aniqlagich» atamasi haqida turli xil qarashlar mavjudligi tufayli ularga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Ilmiy adabiyotlarda bu birliklarga nisbatan *geografik terminlar, toponimik nomenklaturalar, toponimik indikatorlar* kabi atamalar qo'llaniladi. Ularga nisbatan *aniqlagich* atamasining ishlatilishini o'zbek tilshunoslari ishlarida uchratamiz. Toponimik indikatorlar atamasini B.A.Serebrennikov qo'llagan, Z.Do'simov esa bu atamani o'zbek tilshunosligiga olib kirgan.

Darhaqiqat, Z.Do'simov 1972-yilda «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida «Toponimik indikatorlar» nomli maqola e'lon qilgan edi. Bu maqola ham uning toponimlarning yasalishi va tasniflariga oid ishlari kabi diqqatga sazovordir. Maqola muallifi bu so'zlarga nisbatan *geografik terminlar*, *geografik nomenklaturalar* atamalarini E.M.Murzaev, G.K.Konkashbaev, N.A.Baskakov kabi olimlar qo'llaganligi, G.N.Donidze, V.N.Popova kabi toponimistlar ularni *toponimik yoki gidronimik terminlar* deb atashni ma'qul ko'rganligi haqida yozadi [32, 71-72].

Z.Do'simov maqolada bu birliklarni mazmun va xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratgan edi:

I.1. Obyekt bildiruvchi indikatorlar: *qal'a, ovul, tog', tepa, atyuz, bozor, to'qay, bog'*.

2. Belgi-xususiyat bildiruvchi indikatorlar: *bo'z, obod*.

3. Tomon bildiruvchi indikatorlar: *orqa*.

4. O'rin bildiruvchi indikatorlar: *baland, past, yuqori, tuban*.

5. Rang-sifat bildiruvchi indikatorlar: *ko'k*.

6. Son bildiruvchi indikatorlar: *uch, besh, qirq, to'qson, ming*.

7. Jamlik bildiruvchi indikatorlar: *jam*.

II. Gidronimik indikatorlar: *daryo, arna, irmoq yop, salma, salba, ko'l, aydın, chungul, quyi, hovuz* kabi.

N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar ularni ba'zan *termin-indikatorlar*, *determinativlar* va *tasniflovchi so'zlar* tarzida nomlashlari haqida ham ma'lumot beradi [46, 143].

T.Enazarov indikator yoxud geografik termin deyishdan ko'ra toponimik aniqlagich deyish to'g'ri ekanligini qayd etib, «Toponimik aniqlagich – TA atamasini birinchi bo'lib biz qo'llaganmiz», deydi. 1972-yilda Z.Do'simovning maqolasiga tayanadigan bo'lsak, T.Enazarovning da'vosi asossizdir.

Ammo kim va qachon o'zbek tilshunosligida ushbu atamani qo'llaganligidan qat'iy nazar, *toponimik aniqlagich* atamasi talabga javob beradi va uni bimalol iste'molda qo'llash mumkin.

T.Enazarov «Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi» asarida ularning o'zbek tiliga oid bo'lgan so'zlardan tashkil topgan bir, ikki, ba'zan uch bo'g'inli ko'rinishlari mavjudligini aytib, ularning butun bir arsenalini keltiradi. Ham toponimik asos, ham toponimik aniqlagich vazifalarini o'tay oluvchi bu sodda so'zlar quyidagilardir: *avloq, arpa, ariq, adir, yo'l, bel, besh, boy, bola, bosh, bolta, baliq, barlos, buloq, bo'z, bobo, ber, balchiq, botqoq, bo'y, bor, boldir, do'rmon, dara, do'ng, dala, durkun, etim, etti, yosh, jilg'a, jar, jiyda, irmoq, issiq, kal, qo'ylak, ko'ch, kel, kamar, katta, ko'k, ko'prik, kepak, ming, moy, mo'g'ul, nayman, oq, ot, oyoq, olma, omon, ota, oyna, orol, sanchiq, sut, so'l, soy, suv, tepa, tosh, tol, tesha, tasma, turk, tut, to'da, tog', tikan, tik, tamg'a, toy, to'qay, tevarak, tuz, terak, to'sh, to'g'ri, tup, ters, egar, umoch, uzum, uch, uya, uzun, chakalak, chosh, cho'ltoq, cho'l, ega, yuz, yangi, yantoq, o'rta, o'q, o'ngir, o'rmon, yallachi, chang, chaqa, miqti, qosh, qish, qayna, qiyot, qaychi, quduq, qo'l, qirq, qora, qo'chqor, quril, quyi, qum, qayir, qov, qir, qiyalik, qipchoq, qangli, qatag'on, qizil, quruq* va boshqalar [.7-8].

T.Enazarovning yuqorida nomi tilga olingan asarida bu so'zlarning toponimik atamashunoslikda, odatda, apellyativ so'zlar deb atalishi, toponimlashuv jarayoni amalda birdagina ro'y bermasdan, balki ikkinchi, ba'zilarida uchinchi darajali jarayon sifatida amalga oshishi mumkinligi haqidagi fikri toponimlashuvning tarixiy-lingvistik jarayon ekanligidan dalolat beradi: «...toponimlar tarkibidiga topoformantlarning o'zgarmagan holda hamda fonetik jihatdan o'zgarishlarga uchragan holda qo'llanishi, ularning toponimik derivastiyada ishlatilishi onomastik leksika sathiga xos odatiy hollardan biridir», - deydi T.Enazarov [19, 11].

Z.Do'simovning toponimlarning yasalishi borasidagi ishi o'zbek tilishunosligida nafaqat toponimlarning yasalishi, balki toponimika nazariyasiga oid yaratilgan yaxshi ishlardan biri deyish mumkin. Shuning uchun bu o'rinda maqoladagi muhim fikrlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Olimning fikricha, toponimlar yasalish prinsipi jihatdan so'z yasalishidan farq qilmaydi. So'z yasalishi usul va vositalari toponim yasashda ham ishtirok

etadi. Ammo ... atoqli otlarning o'ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olmoq lozim bo'ladi [5, 44].

Toponimlarning yasaliş xususiyatlariga to'xtalar ekan, maqola muallifi o'ta nozik bir jihatni payqaganligi ma'lum bo'ladi. Bu lingvistik birliklar o'rtasidagi assostiativ aloqa masalasidir. Muallif bir qator yasalmalar va yasovchi qo'shimchalarni tahlil etar ekan, ular orasida *-lik* elementiga diqqatni qaratadi: «So'z yasaliş strukturasi hamma vaqt yasovchi va yasalmaning semantik-morfologik munosabati bilan belgilanar, qismlar orasidagi *assostiativ aloqa* sezilib turishi lozim deb qaralar ekan, keltirilgan bu toponimlarning birortasi ham *-lik* affiksi orqali yasalgan deb bo'lmaydi. Masalan, *bazzozlik* va *hurlik* so'zlarining bu holati ularning toponimgacha bo'lgan ko'rinishidir» [5, 45]. Z.Do'simov so'z qachon toponimga aylanganligi haqidagi masalani aniq qo'yadi: u muayyan qo'shimchani olgunga qadar toponimlashganmi yoki uni olgandan keyinmi? Aslida undan oldin ham emas, keyin ham emas. So'z ushbu holatda *-lik* qo'shimchasini olgandan keyin ham toponimiya bilan aloqasi bo'lmagan. U bir necha muddat apellyativ holatda bo'lgan. Keyinchalik esa «bu leksemalar ma'lum obyekt bilan bog'lanadi va ushbu obyektни ifodalash uchun maxsuslanadi. Leksemalarning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi ikkinchi planga tushadi. Leksema toponimga aylangach, uning asosiy funkstiyasi ma'lum obyektни xuddi shunday boshqa obyektдан farqlashdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, bu holatlar bilan bog'liq holda uning formal-morfologik xususiyati o'zgaradi [5, 45].

Z.Do'simovning bu fikri nazariy ahamiyatga ega bo'lgan qarashdir. Biz masalaga ko'pincha yuzaki qarab, masalaning mohiyatini chuqur anglab etmasdan, toponimni *-lik*, *-li*, *-lar*, *-kor*, *-kash* yoki boshqa qo'shimchalar vositasida yasalgan, deb xulosa chiqarib qo'ya qolamiz. Aslida esa bunday emas. *Bazzozlik*, *Hurlik*, *Ilonli*, *Bolg'ali* tipidagi toponimlarning yasaliş strukturasi muallif ularning nolga tengligini qayd etadi. Leksemalar toponimga aylangach, ularda qator o'zgarishlar yuz beradi, - deydi maqola muallifi, - jumladan, ular kategoriya jihatdan o'zgaradi (boshqa leksik-grammatik guruhga o'tadi), sintaktik holatida o'zgarish sodir bo'ladi, semantik jihatdan ham o'zgarishga (ma'no

maxsuslanishiga) uchraydi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyatlari ham o'zgaradi [5, 44]. Mana shular toponimlar yasalishidagi o'ziga xos alomatlaridir.

Olim bu erda ko'chim sodir bo'lganligini qayd etadi. Uning «Toponim yasallishining leksik-grammatik xarakterdagi bu usulini *apellyativning toponimizastiyalashuvi* yoki *onomastik konversiya* deb yuritish mumkin» degan fikri g'oyat qimmatlidir [5, 45]. Shuning uchun ham u so'zlarning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi bilan toponimik ma'nolarini farqlash kerakligini uqtiradi va «onomastik konversiya orqali toponimlar yasalganda, leksema o'z funkstiyasi, sintaktik qurshovini o'zgartish bilan birga o'z paradigmasini ham o'zgartiradi», deb ta'kidlaydi [5, 46].

Muallif fikricha, toponimlar tarkibidagi barcha qo'shimchalar to'g'risida ham bir xil fikrni aytib bo'lmaydi. «...o'zbek tilida *-iston, -obod, -kent (kat)* tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomlari yasaydi. Shuning uchun bunday qo'shimchalarni *toponim yasovchi affikslar (topoaffikslar)* deyish o'rinlidir». Yana: *-chi, -lar, -li, -zor, -loq ...* o'zlarining ayrim ma'nolariga ko'ra toponimlarga yaqin so'zlar yasaydi. Shuning uchun ham ular, ko'pincha, toponim yasallish strukturasida obyektini ko'rsatuvchi formal elementga o'xshab qoladi. ... Ular toponimik modellarga mos keladi. (*Ko'salar, Olmali*). Shuning uchun ham bu tipdagi qo'shimchalarni *toponimik formant (topoformant)* deb atash to'g'riroqdir [5, 47].

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, hamma so'z yasovchilar ham, hatto joy nomlari yasovchi qo'shimchalar ham topoformantlar tarkibida ishtirok etsa-da, toponimlar yasovchi sifatida e'tirof etilmaydi. Ammo o'zbek tilida umuman boshqa vazifani ado etuvchi *-lar* singari qo'shimchalar toponimik derivat sifatida so'z tarkibida ishtirok etishi mumkin. *-lar* adabiy tilda ko'plikni bildiruvchi qo'shimcha ekanligi ma'lum. Lekin quyidagi toponimlar tarkibida esa ko'plik ma'nosini yo'qotib, joy nomini atashga xoslangan: *Beklar, Boylar, Mavrlar, Minglar, Xo'jalar* kabi. Bu holat toponimik elementlarning o'zbek tili

umumiy leksik fondida o'ziga xos leksik-grammatik jihatlari bilan ajralib turishi haqidagi fikrni yana bir isbotlaydi.

S.Qoraev *-lar* yordamida toponimlarning yuzaga kelishini keyingi 200-300 yil – ko'chmanchi xalqlarning o'troqlashishi bilan bog'liq deb hisoblaydi va buni ularning ko'pchiligi etnonim ekanligi bilan asoslaydi.

Ko'plikni ifoda etuvchi tojikcha *-on* qo'shimchasi ham toponimlar tarkibida ishtirok etadi. S.Qoraevning ko'rsatishicha, ular ma'lum millatga mansublikni (Arabon, Qirg'izon), etnik guruhga tegishlilikni (Qalmoqon, Mang'iton), ma'lum bir mansabga daxildorlikni (Mirzoyon, Tarxonon), u yoki bu kasbga aloqadorlikni (Kosagaron, So'zangaron), dinga oidlikni (Mug'on, Xudoyon) bildiradi [24, 27].

-lar dagi bu xususiyat umumturkiy xarakterga egadir. Masalan, T.I.Tepliyashina «Iz patronimii karinskix tatar» nomli maqolasida uning oilaviy-nasliy ismlarga qo'shib kelishi to'g'risida ham fikr yuritgan va quyidagi misollarni keltirgan: *Arslonpilar* – o'g'illar, Arslonning avlodlari; *Ataspilar* – o'g'illar, Xo'rozning avlodlari va boshqalar [24, 54].

Z.Do'simov «Xorazm toponimlarining yasalishi» nomli maqolasida, qisman bo'lsa-da, ushbu masalaga yana to'xtalgan. Maqolada Shimoliy Xorazmda sifat+ot maketida tuzilgan toponimlarda ko'p uchrovchi *-li/-li* qo'shimchasining qozoq, qoraqalpoq, tatar, turkman tillaridagi qurilmalarga o'xshashligi, shuningdek, *-lik/-liq*, *-chi/-chi*, *-qan/-ken/-gan/-gen* shakllarining toponimlar yasashdagi ishtiroki xususida so'z yuritilgan.

Maqoladagi *Aliketgan*, *Qumbosgan*, *Qo'yqirilgan* tipidagi atoqli nomlar tuzilishiga va mazmuniga ko'ra boshqa nomlardan farq qilishi, shu sababli ega+kesim maketida tuzilgan bu birikmalarni tarixan paydo bo'lish usuliga ko'ra gapga tenglashtirib, *gap-toponimlar* deb atash mumkinligi haqidagi fikr ham diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, tarixan bu nomlar *Ali ketgan ko'l*, *qum bosgan qal'a*, *qo'y qirilgan qal'a* tarzida bo'lgan.

Tilshunoslar toponimik so'z yaslashini tildagi so'z yasashdan umuman ajralib turishini istaydilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, N.V.Podolskaya nomshunoslikdagi so'z yasalishi *toponamastik grammatika* deb aytilayotganligini

ta'kidlab, «Onomastik soʻz yasash muammolari» nomli maqolasida mavzuga doir muhim fikrlarni oʻrtaga tashlagan edi [5, 40-53].

Toponimika onomastikaning tarkibiy qismi sanalar ekan, toponimik soʻz yasash ham onomastik soʻz yasash doirasida qaralishi, binobarin, onomastik soʻz yasash qoidalarini oʻzida mujassam etishi qonuniy bir hol sanaladi. Demak, toponimistik grammatika onomastik grammatikaning ichida qaralishi, onomastik grammatika esa bu yoʻnalishlarning yuqorisida turishi lozim. N.V.Podolskaya masalaga ana shu nuqtai nazardan turib yondashadi va quyidagilarni yozadi: «Onomastik soʻz yasashini atoqli otlar morfologiyasi va sintaksisi bilan birgalikda onomastik grammatikaning tarkibiy qismi sifatida qarash kerak. Shu bilan birga, soʻz yasashi onomastik grammatikada alohida boʻlim boʻlishi lozim [46, 40]. Uning quyidagi aytganlari ushbu fikrlarni mustahkamlashga qaratilgan: «Biz onomastik, ayniqsa, toponimik tizim toʻgʻrisida gapirganimizda lokallashgan, bir hududga toʻgʻri kelgan tizimni nazarda tutamiz. Onomastik soʻz yasashi haqida gapirganimizda esa zarurat tufayli hududdan emas, balki tilga daxldorlik nuqtai nazaridan kelib chiqamiz. Onomastik soʻz yasash tizim ichidagi va til/dialekt ustunlik qiluvchi soʻz yasashining ichidagi tizim (podsistema)dir» [46, 42].

Umuman, soʻz toponimga aylangunga qadar maʼlum lingvistik jarayonlarni, masalan, soʻz yasashi, leksikalizastiya, konversiya kabi jarayonlarni boshidan kechirishi mumkin. Shunday ekan, hosila birlikka boʻlgan munosabatda uning onomastizastiya, aniqrogʻi, toponimizastiya jarayoniga oʻtgunga qadar boʻlgan holati – appelyativ leksika holati alohida oʻrganilishi lozim. Topoformantlarning etimologiyasini aniqlashda ana shu birinchi bosqichga murojaat qilmasdan turib masalani hal qilib boʻlmaydi.

Toponimizastiya jarayoni, aksariyat hollarda, metonimizastiya va konversiya hodisalariga aloqador. Masalan, *Oʻqchi mahallasi* → *Oʻqchi mahalla* → *Oʻqchi* kabi. Misolda soʻz birikmasi bir soʻzga aylangan boʻlsa ham komponentlar oʻrtasidagi botiniy aloqa saqlanib qolgan. Bu ham metonimizastiya hodisasi tufayli qisqarishning bir yoʻlidir.

Demak, ma'lum ma'noda konversiya va metonimizastiya hodisalari tildagi qisqaruv hodisasi bilan bog'liq. So'zlarni, umuman, til birliklarini mumkin qadar qisqa shaklda bayon etish, shu jarayonda asosiy mazmunni saqlab qolish o'zbek tili tabiatiga mos keladi. Shuning uchun ham, N.V.Podolskayaning fikrlari asosga olinishi, nomlanishdagi metaforizastiya hodisasiga e'tibor berilishi lozim. Masalan, Nurobod tumani Ulus qishlog'ining davomi bo'lgan Tortuvli qishlog'ining g'arbiy chekkasida qirlarning tugash joyida *Mulla Alining tumshug'i* degan kichik tepalik mavjud. Bundan ellik yillar muqaddam qishloqning g'arbiy chekkasidagi eng oxirgi uy qishloqning ma'lumotli kishilaridan biri, ko'p yillar qishloq mullasi bo'lgan Ali boboniki bo'lgan va kichik tepalik shu kishining otiga nisbat berib nomlangan. Keyinchalik bu kichik tepalik *Tumshuq* deb nomlanadigan bo'lgan. B.O'rinboev «Asrlardek barhayot nomlar» asarida Bulung'ur tumanida ham shu nomdagi qishloq mavjudligi haqida ma'lumot berib, uni «Tog' yo yirik balandliklarning bo'rtib chiqqan do'ng qismi *tumshuq* deb ataladi» tarzida izohlaydi [46].

Toponimlarda qisqaruvning sodir bo'lishi lingvistik jarayondir. Bu jarayonni tahlil qilgan K.Yusupov «Ayrim toponimlar masalasi» maqolasida tarixiy hujjatlarda *Abdurahmon aftobachining cheki* shaklida ifodalangan so'z birikmasi davrlar o'tishi bilan *Aftobachichek* shakliga kelib qolganligi, *Nasriddinbek cheki*, *O'rmonbek cheki*, *Madiyorcheke*, *Yangichek* kabi nomlar ham ana jarayonning mahsuli ekanligi xususida so'z yuritgan [27, 15-20].

Xullas, so'z birikmasi shaklidagi toponimlarning bir so'zga aylanish usullaridan biri metonimik qisqaruv bo'lib hisoblanadi.

Semantik onimizastiyaga hamroh bo'lgan doimiy harakatdagi jarayonlardan biri otlashishdir. Otlashishni o'ziniki bo'lmagan derivastiya, konversiya deb ham nomlashadi. «Konversiya so'z yasallishning shunday turiki, so'z yasallish vositasi bo'lib faqat so'z paradigmasi xizmat qiladi» [28, 47].

Toponimik so'z yasallishi xususida T.Enazarov ham o'z mulohazalarini bayon etib, ularni tasniflagan. Bular garchi «toponimik yasallish tamoyilining me'yorlari» sifatida ko'rsatilgan bo'lsa ham, aslida toponimlarni yasash usullaridir:

affiksastiya usuli, kompozistiya usuli, abbreviastiya usuli, onomastik konversiya usuli [19, 59] kabi.

Shunday qilib, o'zbek toponimikasini tadqiq etishning bugungi taraqqiyot bosqichida uning yasash bobida qaysi lingvistik sohalar bilan ko'proq aloqador ekanligini, ular doirasida toponimik yasashlarning tutgan o'rni qanday ekanligini bilish, yasash yo'llarini aniqlash va bu yo'llarning boshqa lingvistik so'z yasashlardan farqi nimadaligini anglash toponimikaning nazariy masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Muallif *Darbozategi, Qudugboshi, Yoqubbek guzari* shaklidagi nomlar dastlab kelishik va egalik ko'rsatkichlarini olgan so'z birikmalari sifatida paydo bo'lganligini (masalan, *darvozaning tegi/tagi, quduqning boshi, Yoqubbekning guzari* kabi), keyinchalik talaffuz jarayonida kelishik qo'shimchasi (*ning*) tushib qolib, har ikkala komponent qo'shilgan va toponimga aylanganligini qayd etadiki, bu o'zbekcha toponimlar paydo bo'lishidagi qonuniyatlardan biridir.

Toponegizga yasovchi vositalar qo'shilishi natijasida so'z tarkibida struktural o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Bu hodisa har bir yangi toponim yasashida yuz bermaydi, ammo uni istisno qilish ham mumkin emas. R.Z.Muryasov «Hozirgi nemis tili so'z yasashi tizimida toponimlar» nomli maqolasida bu modifikastining turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatdi: *usechenie*=qisqaruv; *interfeksastiya-toponegiz* va *affiksning* qo'shilish joyida bir yoki bir necha fonemaning paydo bo'lishi; *umlaut*=so'zidagi unlilarning grammatik shakl yasash vositasi sifatida almashinuvi; *udarenie*= urg'u; *univebastiya*= ko'p tarmoqli so'zning bir tarmoqligiga aylanishi [37, 77].

Atoqli otlar tilda faqat leksik ma'noda emas, balki turdosh otlardan farqli ravishda orfografik, morfonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), so'z yasashi va stilistik xususiyatlari bilan ham xarakterlanadi, deydi R.Z.Muryasov. Uning bu so'zlari garchi shaxs otlariga nisbatan aytilgan bo'lsa-da, fikrni toponimik birliklarga nisbatan tatbiq etish mumkin [37, 78].

III bob.

Romanda qoʻllangan joy nomlari

Oybekning «Navoiy» romanida turli guruhlarga mansub keng va tor maʼnodagi joy nomlari qoʻllangan. Keng maʼnoda joy nomlari deganda, umuman biror bir joyni ataydigan nomlar tushuniladi. Bular sirasiga barcha toponimlar kiritiladi. Tor maʼnodagi joy nomlariga daryo, ariq, koʻl, bozor, mozor, ziyoratgoh va shu kabi oʻnlab nomlarni kiritish mumkin.

Bu nomlar mavzu guruhlariga boʻyicha quyidagilarga ajratilishi mumkin:

3.1. Toponimlar.

Joy nomlari: Hirot, Buxoro, Samarqand, Hirot, Badaxshon, Shahrisabz va boshqalar.

Hirot nomi asarda eng koʻp uchraydi. Chunki asar voqealari bilan bogʻliq koʻlab tasvirlar shu shahar bilan aloqador.

*“Bahor quyoshi koʻkning tiniq feruzasida **Hirotning** “Gavharshod” madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, ...edi”* (Oybek. Asarlar. 4-tom. “Navoiy” romani. Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969, 5-b.)¹

Hirot – Afgʻonistonning shimoliy-gʻarbiy qismidagi shahar, Herirud daryosidan sugʻoriladigan vohada joylashgan. Shahar nomi miloddan avval ham maʼlum boʻlgan. Sosoniylar davrida yirik shaharga aylangan. 7-asrdan arablar qoʻl ostida. Bu davrda Hirot yanada rivojlandi. Somoniylar davrida esa Xurosonning asosiy shahri. 10-asr boshlarida Gʻuriylar davlati tarkibiga kirdi. 1020-yildan Hirotni Gʻaznaviylar noibi sulton Masʼud boshqargan. 1221-yilda shaharni Chingizxonning oʻgʻli Tuluy qoʻshinlari egallab, uni vayron qilgan. 1234-yilda shahar Oʻqtoyxon tomonidan qayta tiklangan. Moʻgʻullar bosqinchiligi davridagi vayronagarchiliklar natijasida karvon yoʻllari Oʻrta Osiyodan Hindiston va Xitoyga Hirot orqali oʻtgan. Kurtlar hukmronligi vaqtida shahar Xurosonning asosiy shahri sifatida tez oʻsdi. 1383-yildan Hirot Amir Temur davlati tarkibiga kirdi. Dastlab Mironshoh (1366-1408), keyinchalik Shohrux (1377-1447), Abu Saʼid (1424-69), Sulton Husayn Mirzo (1438-1506) va boshqa temuriylar

¹ Keyingi oʻrinlarda asarning faqat tegishli sahifasi koʻrsatiladi.

davlatining poytaxti bo'lgan. O'sha davrda Hirot juda taraqqiy etgan. O'rta Sharqning yirik savdo, hunarmandchilik va madaniy markaziga aylangan. Hindiston, Xitoy va Yevropa bilan keng savdo va madaniy aloqalar olib borilgan. Hirot va uning atrofida yirik madrasa, masjid, ko'priklar va boshqa jamoat binolari qurilgan. 16-asrdan Hirot Safaviylar davlati tarkibiga kiritildi. 1716-yilda mustaqil Hirot hokimligi tuzilgan. 1732-yilda shaharni Eron shohi – Nodirshoh egallagan. 1747-yildan Durroniylar davlati tarkibida. 19-asr boshida yarim beklik markazi bo'lib qolgan. 1863-yildan Afg'oniston davlati tarkibida. Hirotida Alisher Navoiy, Jomiy, Hofizi Abru, Mirxond, Behzod kabi olim va fuzalolar yashab, ijod qilganlar. Hirot – o'rta asr miniatyura va amaliy bezak san'atining markazi. Me'moriy yodgorliklardan qal'a (15-asr), Jome masjidi (13-14-asrlar), Musallo ansambli tarkibidagi Gavharshodbegim masjidi minoralari, Abdullo Ansoriy maqbarasi (15-asr) va boshqalar saqlangan [ME, H, 172].

Romanda Buxoro toponimi ham tez-tez uchraydi.

*“**Buxoro** va Samarqanddan kelgan ikki tolibi ilmning yordam so'rab yozgan arizalari ...” (365-b.)*

Hozirgi Buxoro o'rnida islom dini markazi tarqalishidan bir necha asr oldin shahar bo'lgan. Shahar Xitoy manbalarida dastlab 5 asrda Nyumi shaklida tilga olingan. Shaharning xozirgi nomi xitoylik sayyoh, Budda rohibi Syun Stzyan «Xotiralar» ida (630-yillarda) Budo shaklida qayd qilingan. Ko'pchilik olimlar, jumladan, akademik V.V.Bartold, nemis olimi V.Tomashek Buxoro nomi sanskritcha vuxara so'zidan kelib chiqqan bo'lib «Budda ibodatxonasi» demakdir, deb hisoblaganlar. V.V.Bartold Balxda va Samarqanddagi kabi Buxoroning yonginasida ham Budda ibodatxonasi bo'lgan deydi. Bu olimlar Buxoro ana shu sanskritcha so'zning turkcha- mo'g'ulcha shakli deb hisoblaydilar.

So'nggi yillarda eronshunoslar vixara so'zi sug'd tiliga parxar shaklida kirgan va uning Buxara tarzida o'zgarib ketishi mumkin emas demoqda. Shuni aytish kerakki, shaharning nomi ko'p bo'lgan, tarixchi Narshaxiy (X asr) Buxoroning Numijkat (Lumijkat), Bimiskat, Madinat us- safriya «Mis shahri» degan nomlari borligini aytgan; tarixchi davom etib, «Buxoro degan nom u

nomlarning hammasidan mashhurroqdir, Xuroson shaharlaridan birortasi ham bunchalik ko‘p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo‘lib kelgan, chunki qiyomat kuni Buxoro shahri o‘zida shahidlarning ko‘pligi bilan faxr qiladi», - deyilgan. Xalq orasida Buxoro bog‘lari ko‘pligidan Bog‘oro degan ma‘noni bildiradi degan rivoyat ham bor. Tarixchi Xofiz Tanish (16 asr) yozishicha, «Buxoro» so‘zi – «buxor» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, otashparastlar tilida «ilm makoni» demakdir. Bu talaffuz uyg‘ur va xitoy butparastlarining tiliga yaqindir, chunki sig‘inish joylarini «buxor» deb ataydilar.

Buxoro shahrining nomi aslida «Lumijkat» bo‘lgan. Shunday qilib, Buxoro toponimining etimologiyasi aniq emas.

Qadimgi turkiy runik yozuvda Kulteginga bag‘ishlangan yodgorlikda Buqaraq degan joy nomi uchraydi (Buqaraq ulus – Buxoro eli) . Buj oy nomiga turkshunos S.E.Malov Buxoro deb izoh bergan.

Buxoro atamasi sanskritcha «vixara» so‘zining turk mo‘g‘ulcha shakli «buxor» («ibodatxona») dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama so‘g‘diycha «bug‘» yoki «bog‘» («tangri») hamda «oro» («jamol») so‘zlaridan iborat bo‘lib, «tangri jamoli » ma‘nosini anglatadi degan fikr mavjud. Buxoroning kelib chiqish tarixi haqidagi bunday fikrlarga asos bor, albatta. Z.M.Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida Buxoroni 25 marta tilga olib o‘tadi: «Ulug‘ viloyatkim, Samarqandning g‘arbi tarafi 25 yig‘och yo‘ldur, Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahri voqi’ bo‘lubtur. Mevasi ko‘p bo‘lur va xo‘b bo‘lur, qovuni bisyor yaxshidur, Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko‘p va xo‘p qovun bo‘lmas» [ME, B, 753].

“Navoiy” romanida ko‘plab o‘rinlarda qo‘llangan Samarqand toponimi ham mavjud.

Samarqand. O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Shaharning bunyod etilgan vaqti va nomning etimologiyasi aniq emas. Shahar Iskandar Zulqarnayning harbiy yurishlari muosabati bilan yunon solnomalarida miloddan avvalgi 329- yilda Marokanda nomi bilan ilk bor tilga olingan.

Turli davrlardagi tarixiy manfalarda shahar nomining Samariana, Saramanka, Sakanna, Sanamgen, Samariyon, Sumron, Samirkent, Samaran, Simroyat, VIII asr boshlariga oid sugʻd hujjatlarida Smarakansa, VIII asrda oʻtgan Marko Paloning “Kitob”ida Samarkan shaklda tilga olingan. Koʻrinadiki, shahar nomining deyarli barcha vaziatlari S harfi bilan boshlanadi, faqat yunoncha Marokanda bundan mustasno. Demak, yunonlar toponimning asli nomini notoʻgʻri eshitganlar, tishlar oʻrsidan sirgʻalib chiqadigan va arabcha “se” harfi bilan ifodalanadigan “S” tovushini yunonlar ilgʻay olmaganlar.

Nomning etimologiyasi haqida turli chalkash va qara- qarshi fikrlar vujudga kelgan. Baʼzi manbalarda Samar- kishi nomi (Samar Abu Qarab) sarkarda ismi bilan bogʻlansa, baʼzilarida Samara- “meva, hosil, yaʼni shirinlik shahri” deb izohlanadi. Buruniy: “Samarqand- turkiy tilda Samizkand maʼrifat shaharlaridan biri”, - deb yozadi. “Oʻgʻizlar va ular bilan yaqin turuvchilar Samarqandni kattaligi uchun Samizkand semiz shahar deydilar”, deb qayd qiladi. M. Koshgʻariy (“DIT”, I, 330).

Samarqand bu nom bilan atalganini Bobur, Mirxand “Razat us- safo” asarida, Kui Gansales de Klavixo kundalik davtarida qayd qilib oʻtadi. Samizkent shaharning nomi emas, balki sifatidir, - deydi S. Qoraev.

H. Hasanov toponimning shu etimologiyasini maʼqul koʻrgan holda boshqa bir izohni ham keltiradi, yaʼni nomning birinchi qismini forsa Xamara “Yigʻin, toʻplanish” soʻzi bilan bogʻlab, “toʻplanish joyi, maslahat qishlogʻi” (H. Hasanov. Oʻtra Osiy joy nomlari 50- bet). Rahmatov Samarqand toponimining birinchi komponenti Shamar forsa “Ariq, kanal” soʻzi bilan aloqador hisoblab, nomni “ariq yonidagi qishloq”, deb izohlaydi. (“Etimologiya toponima, Samarqand”, “Sovetskaya tyurkologiya”, Baku, 1973, 4 50).

T. Rahmatov va H. Hasanovlar shaharni qishloqqa nisbat bergan holda izohlanganlar. Toʻgʻri, qadimda Samarqand deb nomlangan bir nechta qishloqlar boʻlgan. olimlar shunga tayangan boʻlishi mumkin. Masalan, Oʻrta asrlarda Mavaraunahrning janubi- sharqiy burchagida Samarqandaq degan katta qishloq boʻlgan “Hudud ul-olam” asarida (XI) tilga olingan bu qishloqni Samarqand su-

dida arablar bosib kelganida Farg‘onaga qochib borgan sug‘diylar bunyod etganlar. Bu Qirg‘iziston Respublikasining Roten viloyatida vatken tumanidagi Samarqandi qirg‘izchada. Afg‘onistonda bir qishloq ham Samarqand deb atalgan. (S.Qaraev O‘zbekiston viloyatlari toponimlari Tosh.: 2005b 101-102 bet).

Asarda Samarqand shahar ma’nosida kelgan

Shunday nomlardan yana biri Termiz toponimidir.

Termiz –shahar. Surxondaryo viloyatining markazi Termiz Surxondaryo voqeasinidagi eng qadimiy shaharlaridan biri. Bu shahar bir necha marta vayron bo‘lgan. Shaharga 1-ming yillikning o‘rtalariga asos solgan.

Havzu Abriyning yozilishicha shahar nomi “Faramastxa” (Baqtriycha “narigi sohillardagi manzil”) so‘zidan olingan bo‘lib, asarlar davomida turlicha atalib kelgan (mas., Antioxiya, Dimetrias, Tormed, Tormiz, Ta-mi, ta-mo)

Sh. Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qayd qilinishicha Termiz aholisi mug‘illarga qattiq qarshilik ko‘rsatgan va shu bois shahar “Madinat ur-rivoj” (“Mardlar shahri ”) deb nomlangan. XIVasrda Surxondaryo sohiliga yaqin joyda tiklandi.

H.Hasanov- Termiz qadimiy nomlardan bo‘lib Janub tomondagi xalqaro tomondan aytilgan Toromata- Naryoqdagi qishloq so‘zlaridandir. (“Avesto yozuvlaridan bor”) dastlab Tarmida Tarameta deb talaffuz qilingan. X asrdan boshlab Termiz bo‘lgan”- deb yozadi.

3.2. Gidronimlar.

Asarda bir qancha gidronimlar qo‘llangan: Amu, Jayxun, Murg‘ob, Chorsuv, Daryoi sho‘r kabilar.

*“Xurosonga hujum uchun Sulton Mahmud qo‘shin bilan **Amu** yoqasida turgan emish” (73-b.);*

Toponimistlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb baholashadi. Haqiqatan ham shunday. Masalan, Amudaryo bilan Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osori atiq yodgorliklarining yoshi bilan bellasha oladi.

O‘rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (miloddan avvalgi V asr) asarlarida Araks deb, keyinroq (miloddan avvalgi I asr-

milodning I asrida) o'tgan yunon tarixchilari asarlarida *Oks* (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (ba'zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi – o'kuz «daryo» so'zining o'zginasi deb hisoblaydi. *Avesto* va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning *Arang*, *Raxa*, *Ranxa*, *Aranxa* degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni Jayxun «jo'shqin (daryo)» deb atashgan. Jayxun yahudiylarning muqaddas kitobi «Tavrot»da tilga olingan Jixon daryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor.

Rus oiimi V.V.Bartold arablar Jayxun bilan Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayxon va Sayxon daryolari nomlari bilan atashgan bo'lsa kerak deydi. O'rta asr tarixchisi Gardiziy «Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot» degan edi. Bu to'g'ri fikrga o'xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turgan *Shahrud* (Shohrud emas) – «rudi shahri Buxoro»ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud («shaharga suv beradigan anhor») ning quyi qismi Jayxun deb atalgan, Shahrud kanalidagi uchta to'g'on boshining biri ham Jayxun deyilgan.

Amudaryoning qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) bo'lgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi – malak nomi deb yozgan. Professor H.Hasanov ma'lumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoni hozir ham *Vakshu-nada* deb atashar ekan. O'rta Osiyoda *Vaxsh*, *Vaxshivar*, *Vaxshivardara* degan bir nechta joylar bor.

Amudaryoning hozirgi nomi o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chorjo'y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo'lishi ham mumkin. Akademik V.V.Bartold «Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak» degan farazni oldinga suradi.

Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaror, turg'un narsaning *amul* deyilishini aytib o'tish mumkin («Devonu lug'at-it turk», I tom, 104-bet).

Tarixiy manbalarda Amudaryoning *Termiz daryosi*, *Kalif daryosi*, *Arang*, *Raxa*, *Aranga*, *Urganch daryosi*, *Xorazm daryosi* kabi nomlari uchraydi.

Asarda tilga olingan yana bir gidronim – Murg‘ob daryosidir.

*“So‘ng, kutilmagan paytda, “Maymana”dan **Murg‘ob daryosi** tomoniga otlandi” (89-b.)*

Murg‘ob – Afg‘oniston va Turkmanistondagi daryo. Afg‘oniston hududidagi Paropamiz tog‘laridan boshlanib, Bandi-Turkiston va Safedko‘h tizmalari oralig‘idagi tor vodiynan oqadi. Turkmaniston hududida vodiynan kengayadi, bu yerda irrigatsiya tarmoqlari barpo etilgan. Daryo Qoraqum cho‘liga chiqqandan so‘ng quruq delta hosil qiladi. Mari shahridan yuqoriroqda Murg‘obni Qoraqum kanali kesib o‘tgan. Qor, yomg‘ir va yer osti suvlaridan to‘yinadi. Mart-may oylarida suvi ko‘payadi, qishda daryo toshadi. Irmoqlari: o‘ngda – Obiqaysar, chapda – Kashan, Kushka. Murg‘ob suvi sug‘orishga sarflanadi. Murg‘ob bo‘yida Yo‘lo‘tan, Mari, Bayramali shaharlari joylashgan.

3.3. Ko‘cha nomlari.

“Navoiy” romanida qo‘llangan ko‘cha, mahalla va guzar nomlari toponimlarning alohida bir guruhini tashkil etadi. Ko‘cha, mahalla va guzar nomlari, asosan shahar toponimiyasini maydonga keltiradi. Asar voqealarining aksariyati shahar bilan bog‘liqligi sababli bunday nomlar tez-tez uchraydi.

Ko‘cha so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ta’rif berilgan:

Shahar yoki qishloq ichidagi yo‘l.

1. Aholi yashaydigan joylarda yo‘lovchilar o‘tib turadigan, transport qatnaydigan yo‘l. *Navoiy ko‘chasi, Sobir Rahimov ko‘chasi.*

2. Umuman yo‘l.

3. Yashash, turish joyidan tashqari bo‘lgan joy, ochiq maydon (uy, hovliga nisbatan) [O‘til 5 tomlik K harfi, 476-b.].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rus tilida qo‘llanadigan “улица” ma’nosidagi tushuncha ifodalanmagan.

Asarda ko‘cha so‘zi quyidagi gaplarda ishtirok etgan:

*“Shoir **Xiyobon ko‘chasini** o‘tib, Bog‘i zog‘onning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib, darhol otning jilovini ushladilar” (37-6)*

Shahardagi tabiiy va madaniy, sun‘iy obyektlar nihoyatda xilma-xil. Shahar ichki obyektlarining nomlari *urbonimlar* deyiladi. Bunday obyektlar shahar tarkib topgan davrdan boshlab paydo bo‘lgan.

Ana shu obyektlarning aksari qismi yo‘qolib ketgan bo‘lsa ham xalq xotirasida, qo‘lyozmalar va boshqa yozma yodgorliklarda ularning nomlari saqlanib qolgan. Ularning har biri shahar tarixining zarralaridir. Shahar toponimlarining eng ko‘p sonlisi ko‘cha-ko‘ylar nomlaridan iborat. Ko‘chalarning soni va nomlari har doim o‘zgarib turgan. Sobiq sho‘ro davrida nomlarning ko‘pchiligi kommunistik mafkura, ruslashtirish siyosati ruhi bilan sug‘orilgan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra birgina Toshkent shahridagi jami 3253 ko‘cha soni keltirilgan. Lekin mustaqil nomlar soni 1500 dan oshmaydi. Buning sababi shundaki, katta ko‘cha ham, tor ko‘cha ham, berk ko‘cha ham bir nom bilan atalgan; masalan, bitta ko‘cha, 2 ta tor ko‘cha, 2 ta berk ko‘cha Ashrafiy nomi bilan atalgan. Boturami ko‘chasining 1-liniya, 2-liniya, 3-liniya tarmoqlari, shuningdek, Botumi tor ko‘chasi, Botumi berk ko‘chasi bo‘lgan, demak, hammasi bo‘lib 6 ta ko‘cha Botumi deb atalgan.

Xuddi shunday nom qo‘llanishi **Guliston** nomi bilan bog‘liq. Bu nom ko‘chalar bo‘yicha eng ko‘p takrorlangan. Bosh Guliston ko‘chasining yonida 1-Guliston, 2-Guliston, 3-Guliston, ... 10-Guliston ko‘chalari, shuningdek, 4 ta Guliston tor ko‘chalari va bitta Guliston berk ko‘chasi mavjud bo‘lgan.

1500 nomning uchdan bir qismi antropotoponimlar – kishilarning ism-familiyalari, laqablari, taxalluslari bilan atalgan toponimlar edi. Shu 500 nomdan aksari qismi – 280ga yaqini rus familiyalari edi, ular orasida partiya va davlat arboblari, fan va madaniyat arboblari, qahramonlar, chor generallari asosiy o‘rin tutar edi. Jumladan, Aleksandrov, Babushkin, Blyuxer, Budyonniy, Vereshchagin, Vrevskiy, Vishinskiy, general Petrov, Grishin, Dejnev, Dzeriinskiy, Dobrolyubov,

Jdanov, Jukovskiy, Ilich, Kadishev, Kalinin, Karbishev, Kirov, Kollontay, Kosmodemyanskaya, Kotovskiy, Kuropatkin, Krenkel, Krupskaya, Kuybishev, Kutuzov, Lazo, Lenin, Lunacharskiy, Malinovskiy, Shumilov, Shchors va hokazo.

O'zbekiston poytaxti ko'chalaridan 250 tasi ruscha so'zlar bilan atalgan edi: Abrikosoviy, Agroshkola, Bogarnaya, Vishnevaya, Vo-dopadnaya, Vostochnaya, Golubaya, Gornaya, Groznaya, Dal-naya, Duboviy, Jarkiy, Zapadnaya, Zelenaya, Zimnyaya, Zolnaya, Industrialnaya, Kalinovoy, Kishechniy kabi.

Bu kabi toponimik nomuvofiqlikka mustaqillik yillarida chek qo'yildi.

3.4. Darvoza nomlari.

Toponimiyada davoza nomlari alohida o'rin tutadi. Bunda nafaqat inshoot nomi, balki su inshoot joylashgan manzil ham nazarda tutiladi.

Qadimda darvozalarni himoya qilish o'zbek qabilalari vakillarining zimmasida bo'lgan. Qo'riqchilar uchun darvoza yaqinida boshpana ajratilgan. Masalan, qiyot qabilasi vakillari Qiymas darvozasini himoya qilganlar va Qiyot nomli mahallada yashaganlar. Bu mahalla Toshkent shahridagi hozirgi Navoiy ko'chasi, O'rda yonida bo'lgan.

Asarda bir qancha darvoza nomlari qo'llangan. Bularga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

*“Shunday qilib, shaharning qarama-qarshi tomonlariga, masalan, shimoldagi **Darvozai mulk**dan janubdagi **Darvozai Feruzobodga** chiqib qolganini kishi bilmay qolardi” (13-b.);*

“Keyin ular uzoqda, shaharning shimolida Darvozai mulk bilan Darvozai qipchoq o'rtasidagi jomening quyosh chaqnagan yetti ulug' toqi, gumbazi to'g'risida so'zlashdilar” (15-b.)

Xulosa

“Navoiy” romani - Oybekning ijodida alohida o‘rin tutadigan shoh asar.

Asardagi joy nomlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘z muallifiga ulkan shuhrat keltirib, uning nomini dunyoga tanitgan bu go‘zal asar, badiiy yaratma 15-asr O‘rta Osiyo, xususan, Movarounnahr tarixi, madaniy hayoti hamda jahon madaniyatining yorqin shaxslaridan sanalgan Mir Alisher Navoiyning hayot faoliyati, insoniyat ma’naviy olamiga qo‘shgan hissasini batafsil bayon etuvchi dilbar ijod namunasidir.

2. Oybek 20-asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga nom qoldirgan ijodkordir. Oybek o‘z asarida hayotni, bor haqiqatni bo‘yamasdan, ortiqcha bo‘yoqlarsiz tasvirlaydi.

3. “Navoiy” romani o‘ziga xos til xususiyatlariga ega. Undagi tabiat manzaralari, insonlar xarakterini chizishdagi so‘zlar o‘z o‘rnida, ma’no jihatdan butunligi bilan ajralib turadi.

4. Asar tilidagi atoqli otlar ham o‘ziga xos semantik-uslubiy vazifa bajarganligining guvohi bo‘lish mumkin.

5. Asarda yuzdan ortiq atoqli ot ishlatilgan.

6. Asardagi asosiy atoqli otlarni toponimlar, antroponimlar, gidronim tashkil etadi.

7. Asar tilida qo‘llangan atoqli otlar o‘zbek, arab, fors-tojik tillarga mansub bo‘lib, ularda ba‘zan o‘zbek+arab, arab+o‘zbek, o‘zbek+tojik, tojik+o‘zbek kabi yasali shakllari ham uchraydi.

8. Asarda toponimlarning oykonim, urbonim, antropotoponim, gidrotoponim va boshqa shakllari qo‘llangan.

9. Asar tilida suv havzalarining nomini atovchi gidronimlar ham uchraydi. Gidronimlarning daryo, kanal, sharshara va ariq nomlari kabi turlari ham tez-tez ko‘zga tashlanadi.

10. Asarda qo‘llangan toponim va gidronimlardan tasvirlangan hudud geografiyasi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin.

11. Kuzatishlar asardagi atoqli otlarning tuzilishiga ko‘ra sodda (tub va yasama), qo‘shma, birikmali egaligini ko‘rsatdi.

12. Asardagi atoqli otlar leksik-semantik (onomastik konversiya), affiksatsiya, sintaktik (kompozitsiya) usullar vositasida yasalgan.

13. “Navoiy” romanida qo‘llangan atoqli otlar yanada kattaroq tadqiqot uchun material bo‘lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тарақиёти йўли. Тошкент. Ўзбекистон, 1992 йил 71-б.

Monografiya va alohida nashrlar:

2. Антропонимика. Москва, 1970, 230 с.
3. Атаниязов.С. Туркменистаннинг топонимияси Ашхабад, 1981, 26-бет
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, “Фан”, 1985, 199 б.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Т.: 1985, 107 б.
6. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. Тошкент, 1982, 66 б.
7. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974.
8. Мусин Р. Сўз мағзидан ер бағрига. Тошкент, 1967, 79 б.
9. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимияси (Дастур) Тошкент, 1988, 34 б.
10. Ономастика Узбекистана. Ташкент, 1989, 170 с.
11. Ономастика Ср. Азии. Москва, 1987, 27 с.
12. Оронимика. Москва, 1969, 174 б.
13. Охунов Н. Жой номлари таъбири. Тошкент, 1994, 88 б.
14. Охунов Н. Жойлар ва номлар Тошкент, 1985, 95 б.
15. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. Тошкент, 1985, 173 б.
16. Никонов В. Введению в топонимику. Москва, 1966 14 с.
17. Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микропонимии Таджикистана. –Душанбе: изд-во «Ирфон», 1975.
18. Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари. (Туркий топонимлар мисолида) 1-китоб, Т.: 2001, 78 б.

19. Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Т., 2004. Эназаров Т. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи. – Т.: Университет, 2002.
20. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 томлик, 1-том, 425-б.
21. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003.
22. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма Т.: 2005. 58 б.
23. Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? – Т.: Ўзбекистон, 1970.
24. Қораев С. Топонимика – жой номлари ҳақидаги фан. Тошкент, 1980, 80 б.
25. Қораев С. Тошкент топонимлари. Тошкент, 1991, 118 б.
26. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т.: 1965, 178 б.

Dissertasiyalar va avtoreferatlar:

27. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами. Номз.диссер.автореф. Тошкент, 1999, 22 б.
28. Турдибеков М. Абулғози Баҳодирхоннинг “Шажараи турк” асари ономастикаси. Номз.диссер.автореф. Тошкент, 2001, 22 б.

Ilmiy maqolalar:

29. Бегматов Э, Орипов. Ў. Микротопоним тушунчаси ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, 3-сон, 21-26 б.
30. Бегматов Э., Жумаев А., Сатторов Ғ. Ўзбек ономастик терминологияси ва уни нормалаш проблемалари//Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. Тошкент, “Фан”, 1986, 8-10-б.
31. Бромлей Ю.В. Этнос и этнография. - М., 1973.
32. Дўсимов З. Топономик индикаторлар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, 6-сон, 18-б.
33. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида позитивлик ва негативлик тамойиллари//Ўзбек тили ва адабиёти. 1985, 2-сон, 58-61 б.

34. Латипова Х. Жой номларини ифодаловчи сўзлар синонимияси// Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, 6-сон, 45-48 б.
35. Латипова Х. Жой номларини ифодаловчи сўзлар синонимияси// Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, 6-сон, 45-48 б.
36. Матвеев А.К. Взаимодействие языков и методы топонимических исследований // Вопросы языкознания, 1972, 3.
37. Мурясов Р.З. Топонимы в словообразовательной системе современного немецкого языка // Вопросы языкознания, 1986, 4.
38. Муҳаммаджонов А. Фарғона номининг маъносига доир//Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 7-сон, 9-11-б.
39. Муҳаммаджонов А. «Андикон, Андигон ва Андижон» топонимлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 2-сон, 62-67-б
40. Нафасов Т. Ўзбек топонимикаси терминларининг шаклланиши ва тараққиёти//Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. Тошкент, “Фан”, 1986, 52-55-б.
41. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965.
42. Нуритдинова Р. Атоқли отларнинг грамматик тузилиши ва ясалишига оид терминлар// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 6-сон, 88-90-б.
43. Нуритдинова Р. «Апеллятив» термини ҳақида// Жой номлари халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси. Навоий, 1998. 54-б.
44. Нуритдинова Р. Ўзбек номшунослиги терминологиясининг баъзи масалалари// Тил ва истиклол. ЎзДЖТУ. Тошкент, 2004. 130-132-б.
45. Охунов Н. Жой номларининг синтактик-лексик усул билан ясалиши // Тил ва адабиёт таълими. 1997, 5-6-сон, 66-69-б.
46. Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания, 1969, 4.
47. Томахин Г.Д. Топонимы как реалии языка и культуры (на материале географических названий США) // Вопросы языкознания, 1984, 4.

48. Улуқов Н. Наманган вилояти гидронимларининг шаклланиши хусусида // Ўзбекистон Республикасининг минтақавий геофафик сиёсати: муаммо ва ечимлар. –Наманган, 2001 Б.143-144.

Lugʻatlar:

49. Бегматов Э, Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган: 2006, 152 б.

50. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977, 87 б.

51. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988, 316 б.

52. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. Қарши, 1993, 190 б.

53. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, 2000, 599 б.

54. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. Москва, «Русский язык» нашриёти, 1981.

55. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Тошкент, 2006-2007..

Badiiy asarlar:

56. Ойбек. Асарлар. 4-том. “Навоий” романи. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1969, 422 б.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MUSO TOSHMUHAMMAD O‘G‘LI OYBEK VA UNING “NAVOIY” ROMANI ASARI.....	7
1.1. Oybek va uning adabiyotdagi o‘rni.....	7
1.2. Oybekning “Navoiy” asari haqida.....	9
 2-bob. Toponimlarning lingvistik xususiyatlari.....	 11
2.1. Toponimik ma’no.....	11
2.2. Toponimlarning fonetik va grammatik xususiyatlari.....	14
2.3. Toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	16
2.4. Toponimlarning stilistik xususiyatlari.....	20
2.5. Toponimlarning yasalishi va tuzilishi.....	25
 3-bob. “Navoiy” romanidagi joy nomlari tahlili.....	 35
3.1 Toponimlar.....	35
3.2 Hidronimlar.....	39
3.3 Ko’cha nomlari.....	41
3.4 Darvoza nomlari.....	43
Xulosa.....	44
 Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	 46